

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALAR UNVERSITETI**

Himoyaga ruhsat
Kafedra mudiri F.O.Bazarov

«____» _____2016 y.

**POCHTA ALOQASI KORXONALARIDA ELEKTRON PUL
O`TKAZMALARINI RIVOJLANTIRISH YO`LLARI
mavzusida**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi _____ N.T. Norova

Rahbar _____ Q.A.SHakarov

Taqrizchi _____ A.R Abdulazizova

XFX bo'yicha
maslahatchi _____ F.M.Qodirov

Toshkent-2016

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

“AKT sohasida iqtisodiyot va menejment” fakulteti “Pochta aloqasi texnologiyasi”
kafedrası

Yo'nalish: 5620300- Pochta aloqasi texnologiyasi

TASDIQLAYMAN

Kafedra mudiri _____
2016y « _____ » _____

Talaba Norova Nodira Tayirxanovnaning «Pochta aloqasi korxonalarida elektron pul o'tkazmalarini rivojlantirish yo'llari » mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga oid

TOPSHIRIQ

1. Mavzu Universitetning 2015 yil “14 ” dekabrda 1322-19-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.
2. Ishni himoyaga topshirishmuddati: 28.05.2016
3. Ishga oid dastlabki ma'lumotlar: Prezidentasarlari, iqtisodiy darsliklar, qonun, qaror, farmonlar va boshqa me'yoriy hujjatlar, gazeta va jurnallar, korxona moliyaviy hisoboti hamda internet ma'lumotlari.
4. Hisoblash–tushuntirish yozmalar mazmuni: Kirish, Pochta aloqasi korxonalarida elektron pul o'tkazmalarni rivojlantirish yo'llari, elektron pul o'tkazmalari tizimini rivojlantirish yo'llari tahlili. Hayot faoliyati xavfsizligi. Xulosa
5. Grafik materiallar ro'yxati: «O'zbekiston pochta» AJ ning tarkibiy tuzilishi, «O'zbekiston pochta»AJ ning asosiy faoliyati tahlili.
6. Topshiriq berilgan sana: 18.01.16

Rahbar: Q.A. Shakarov _____
imzo

Topshiriq oldim: _____

7. Ishning ayrim bo'limlari bo'yicha maslahatchilar:

Qism	Maslahatchi	Imzo, sana	
		Topshiriq Berildi	Topshiriq olindi
1 Bob	Q.A. Shakarov	18.01.16	10.02.16
2 Bob	Q.A. Shakarov	05.02.16	12.03.16
3 Bob	Q.A. Shakarov	18.03.16	27.03.16
4 Bob	Qodirov F.M.	14.04.16	20.05.16

8. Ishni bajarish grafigi.

T /r	Ish qismlarining nomi	Bajarish muddati	Rahbar (maslahatchi) Belgisi
1.	Elektron pul o'tkazmalarining tizmi	06.02.16	
2.	Pochta aloqasi korxonasida elektron pul o'tkazmalar tizimi va uning o'sish tendensiyasi	23.03.16	
3.	Pochta xizmatlari soxasini modernizatsiya qilishning iqtisodiy samaradorligini oshirish usullari	16.04.16	
4.	Xayot faoliyati xavfsizligi	25.05.16	

Bitiruvchi _____
imzo

2016 yil « » _____

Rahbar _____
imzo

2016 yil « » _____

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. ELEKTRON PUL O`TKAZMALARI TIZMI.....	6
1.1. Elektron pul o`tkazmalarini O`zbekistonga kirib kelishi va rivojlanishi... .	6
1.2. Elektron pul o`tkazmalari tizimining ishlash jarayoni.....	11
2. POCHTA ALOQASI KORXONASIDA ELEKTRON PUL O`TKAZMALARI TIZMI VA UNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	23
2.1. Pochta aloqa korxonalarida elektron pul o`tkazmalari xizmatini yo`lga qo`yish yo`nalishlari.....	23
2.2. Pochta aloqa korxonalarida elektron pul o`tkazmalarining o`zgarish dynamikasi.....	36
3. POCHTA XIZMATLARI SOHASINI MODERINIZATSIYA QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI.....	39
3.1. “O`zbekiston pochta” AJ va xalqaro xizmatlari sohasini iqtisodiy samaradorligini oshirish yo`llari.....	39
3.2. O`zbekistonda pochta xizmatlari sohasida iqtisodiy samaradorligini Respublika ichida oshirish yo`llari.....	42
4. XAYOT FAOLIYATI HAVFSIZLIGI. EKOLOGIYA	53
4.1. Ishlab chiqarish jarayonlariga qo`yiladigan xavfsizlik talablari	53
4.2. Favqulotda vaziyatlar, uning sababchi omillari va xususiylari.....	57
XULOSA.....	66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	67

Ushbu bitiruv malakaviy ishida pochta aloqasi korxonalarida elektron pul o'tkazmalari tizimini ishlash jarayonini va hozirgi kunda rivojlangan davlatlarda elektron pul o'tkazmalarining rivojlanish bosqichlari, pochta aloqasida elektron pul o'tkazmalarini rivojlantirish bo'yicha bir nechita usular ishlab chiqildi.

This diploma work about working reading of electronic moneys, for this sphere invention optimum vantage and scrutiny and to create device, to protection information modern graph, between consumer and worker of mail to improve knowledge of worker and to scrutiny to solve problem. To scrutiny scientific – practical sight of work for to decision problems which connected with security of information.

В данной выпускной квалификационной работе изучен процесс электронного перевода денежных средств посредством почтовой связи. Во время изучения этой сферы деятельности, были проведены работы по определению недостатков, изучены этапы электронного перевода денежных средств в развитых странах, а также разработано несколько методов по развитию этой сферы деятельности.

KIRISH

Axborot kommunikatsion texnologiyalari rivojlanib borayotgan vaqtda kompyuterdan foydalanuvchilar soni keskin ravishda oshib bormoqda. Foydalanuvchilarga qulaylik yaratish va ularni ishini osonlashtirish maqsadida ko'pgina jarayonlar avtomatlashtirilmoqda.

Shuning bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2002 yil 30 maydagi NPF-3080-sonli "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risidagi" Farmoni, Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora tadbirlari" to'g'risidagi 2002-yil 30 iyundagi N 200-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2010 yilga qadar hukumat va hukumat organlari boshqaruvi jarayoniga Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish dasturi" to'g'risidagi qarori, O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi 2002 yil 12 dekabrda N 439-II sonli va "Axborotlashtirish to'g'risida" gi 2003 yil 11 dekabrda N 56-II sonli qonunlar boshqalar.

Hozirgi kunning korxona faoliyatini boshqaruv jarayonini sezilarli darajada oshiradi. Hozirgi vaqtda ma'lumotlar bazasi (MB) bilan bog'liq jarayonlarni boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish zamontalablaridan biridir. Bior bir tashkilotning yoki korxonaning avtomatlashtirilgan MB ni yaratish, monitoringini yuritish va faoliyatini kuzatib nazorat qilib borish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda jamiyatni avtomatlashtirilgan MB siz tasavvur qilib bo'lmaydi.

AKT jadallik bilan qo'llanilib bormoqda. AKTdan foydalanish ish samaradorligini oshiribgina qolmasdan, balki korxona va tashkilotlarga bozorda o'z o'rnilarini egallashda muhim ro'l o'ynaydi.

Butun dunyoda insonning har kungi hayot tarzining bir qismi hisoblanadi va jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim rol o'ynaydi. Pochta aloqasining samaradorligini ishlab chiqarishning normal ishlashi va tovarlar hamda

xizmatlarning munosabatlari, shuningdek jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichidagi insonning hayot faoliyati mumkin bo'lmagan sharoitlarga kiradi. Pochta tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molini bog'laydi, ishlab chiqaruvchilar kabi iste'molchilarga xizmat ko'rsatadi, shu bilan birga iqtisodiyotga, boshqaruvga, shuningdek biznesni rivojlantirish va insonlarning turmush tarzini oshirishga faol ta'sir etadi. Pochta aloqasi xizmatlarining bozori transport-logistik xizmatlar (yuk tashish va kurerlik pochta qismida), Axborot-kommunikatsiya (pochta aloqasi xizmatlari yangi Axborot-kommunikatsiya: gibril pochta, Internetga kira olish va boshqa xizmatlari bilan integratsiyalanganligi kabi raqobatlanadi) va moliyaviy xizmatlar (pensiya va nafaqalarni to'lash va yetkazib berish, maishiy va boshqa to'lovlarni amalga oshirish) bozori bilan kesishadi.

1992-yilda MDXda birinchilardan bo'lib elektr aloqadan ajralib chiqdi va mustaqil xizmat bo'lib faoliyat ko'rsata boshladi;

1997-yili Xukumatning qarorlari asosida pochta aloqasining davlat korxonalari aksiyadorlik jamiyatlariga o'zgartirildi va tarkibiga 14 ta xududiy aksiyadorlik jamiyatlari kirgan «O'zbekiston pochta AJ» Davlat aksiyadorlik kompaniyasi tashkil qilindi;

Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 19 iyuldagi "Pochta aloqasi sohasida faoliyatni takomillashtirish to'g'risida" gi qarori "O'zbekiston pochta AJ" Davlat aksiyadorlik kompaniyasini qayta tashkil qilish yo'li bilan yagona ochiq aksiyadorlik jamiyatini yaratish va unga barcha aksiyadorlik jamiyatlarini, ularni filiallarga o'zgartirib, birlashtirish to'g'risidagi qarorni qabul qildi.

Shuningdek, bugung kundagi Axborotlashgan jamiyatda O'zbekiston pochta AJ ham muhim o'rin tutadi va o'z navbatida bir qator xizmat turlarini AKT zahirida joriy etishga erishgan. Biz bitiruv malakaviy ishini yozish davomida avtomatlashtirilgan xizmatlardan biri elektron pul o'tkazmalari xizmati haqida so'z yuritdik.

Elektron pul o'tkazmalari tizimi – dasturiy, texnik vositalar va telekommunikatsiyalar kompleksidan foydalangan holda tizim foydalanuvchilariga

ularning so'rovlariga ko'ra pul o'tkazmalari bo'yicha Axborot kiritish, saqlash, uzatish va berish operatsiyalarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan Axborot tizimi. «Elektron pul o'tkazmalari» xizmatining mohiyati pul o'tkazmalari to'g'risidagi Axborotni ma'lumotlar uzatish kanallari bo'ylab muhofazalangan ko'rinishda, xususan qog'oz eltuvchilarda takrorlamasdan uzatishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Pochta aloqa korxonalarida elektron pul o'tkazmalarini rivojlantirish yo'llari bo'yicha takliflar ishlab chiqish va ularni rivojlantirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari. Bitiruv malakaviy ishning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- Respublika pochta aloqasining Axborotlashtirish jarayonida tutgan o'rnini baholash;
- Pochta aloqasiga AKT ni joriy etishning asosiy yo'nalishlari va Axborotlashtirish jarayonida pochta xizmatining tutgan o'rnini tadqiq etish;
- Pochta sohasida elektron pul o'tkazmalarini yo'lga qo'yishning asosiy tamoyillarini tadqiq etish;
- Elektron pul o'tkazmalari xizmatlarining taxlil qilish.
- Elektron pul o'tkazish tizimlarining taxlil va ularning rivojlanish bosqichlari.

Bitiruv malakaviy ish tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iboratdir.

1. ELEKTRON PUL O‘TKAZMALARI TIZIMI

1.1. Elektron pul o‘tkazmalarini O‘zbekistonga kirib kelishi va rivojlanishi.

AKT-Sammit O‘zbekistonning yetakchi AKT mutaxassislari uchrashadigan asosiy joy hisoblanib, bu yerda har yili yurtimiz va dunyoning yetakchi mamlakatlardan qariyb 400 delegat to‘planadi. Bular AKT bozorining yetakchi ekspertlari, davlat organlari, jamoat va xalqaro tashkilotlarning vakillari, mamlakatimizdagi hamda xorijiy yetakchi AT-kompaniyalarning rahbarlari va mutaxassislaridir.

Bu yilgi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha Milliy Sammit ham bundan istisno emas. Bu yil Sammit ishida Germaniya, Xindiston, Qozog‘iston, Koreya, Rossiya, AQSH, Tojikiston, Chexiya kabi mamlakatlardan qariyb 500 delegat ishtirok etadi. Sammitni o‘tkazishga davlat tuzilmalari, O‘zbekiston savdo-sanoat doiralari, shu yo‘nalishda ishlovchi tashkilotlarning e‘tibori jalb etilgan.

Ma‘lumki, davlat organlari faoliyatiga Axborot kommunikatsiya tizmlarini faol joriy etish jamiyatda keng ko‘lamli Axborot o‘zgartirishlarini amalga oshirishning zarur elementi hisoblanadi. U boshqaruv apparatlarining ishi samaradorligini ancha oshirish, boshqaruv shaffofligini ta‘minlash, davlat bilan aholi hamda davlat bilan biznesning o‘zaro hamjihatligini oshirish imkonini beradi. Mazkur vazifa amalga oshirilishi fuqarolik jamiyati va demokratik asoslarni mustahkamlashda ko‘maklashadi va shu sababli ham u g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Ushbu strategik maqsadga erishish uchun esa barcha davlat va nodavlat tuzilmalarining kuch-g‘ayratini birlashtirish hamda faollashtirish talab qilinadi.

Milliy Sammit esa mutaxassislarga, davlat organlari va xalqaro tashkilotlarga AKT bozorining holatini chuqur tahlil qilish, bu sohadagi yangi yutuqlar bilan tanishish imkonini beruvchi sahna vazifasini bajaradi.

Delegatlar mazkur tadbirni o‘zlarining an‘anaviy, professional anjumanlari deb hisoblaydilar. Bu esa mutaxassislar AKT sohasidagi so‘ngi voqealardan xabardor

bo'lish, fikr va tajriba almashinish, ilg'or amaliyot borasida ekspertlardan Axborot olish, xamkasblar bilan uchrashish uchun yaxshi imkoniyatdir. 50dan ziyod ma'ruzachilar bugungi kunda O'zbekistonda, hamda dunyoda AKT bozorining ahvoli to'g'risida ma'ruza qiladilar, sohadagi yangi yutuqlar bilan tanishtiradilar.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha Milliy Sammit tashkilotchilari: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Kompyuterlashtirish va AKTni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasi, O'zbekiston aloqa va Axborotlashtirish agentligi, O'zbekistonda BMT Taraqqiyot Dasturining "O'zbekistonni rivojlantirish uchun AKT siyosatini shakllantirish va joriy etishda O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga ko'mak" (ICTP) loyihasi hamda O'zbekiston Axborot texnologiyalari korxona va tashkilotlari uyushmasidir.

"UNISStream" xalqaro pul o'tkazmalari tizimi va dunyodagi eng yirik banklardan biri "Deutsche Bank" mijozlarga Xitoydagi yirik banklarda tizimining operatsion punktlari orqali o'z hisoblarini to'ldirish imkonini beruvchi hamkorlikdagi xalqaro loyihani ishga tushirishdi.

Xizmatning mohiyati shundaki, mijoz pulni "UNISStream" punktiga olib kelib, operatorga Xitoy bankidagi bank o'tkazmasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hisob rekvizitlarini ma'lum qiladi. Ma'lumotlar olingandan keyin operator bank xalqaro darajada "Deutsche Bank" tomonidan amalga oshiriladigan tegishli bank o'tkazmasini o'tkazib beradi.

Loyiha doirasida XXI dagi 12 ta yirik bankni qamrab olish rejalashtirilgan. Ular orasida esa "ICBC" va "BANK OF CHINA" singari yirik banklar ham mavjud. "Deutsche Bank" ushbu banklarning barchasi bilan hamkorlik munosabatlariga ega va aynan shu jihat ushbu loyihani amalga oshirish imkonini berdi. O'z navbatida bu banklarning Xitoyda 30000 dan ortiq bo'limlari mavjudligini ham ta'kidlash lozim.

"UNISStream" rahbariyatining hisoblashicha, xizmatning dolzarbligi bunday shakldagi xizmat turlariga insonlarda bo'lgan ehtiyojning o'sib borayotganligidir.

Sabab esa XXR iqtisodiyotining MDH davlatlari va dunyo miqyosida tutgan o'ri. Bunday loyihaga mijozlarda ehtiyoj katta.

U shuningdek, dunyodagi eng yirik banklardan biri va MDH o'tkazmalar bozorida yetakchilardan sanalgan "Deutsche Bank" imkoniyatlaridan foydalangan holda, Osiyo va Yevropaning moliyaviy institutlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytiruvchi muhim qadam ham bo'ldi.

"Biz to'lov xizmati, mijozlarning banklardagi qarzlarini qoplash, bank o'tkazmalari va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan mahsulotlar spektrini faol rivojlantiryapmiz. Hamkorimizning ko'lamini inobatga olgan holda, ushbu loyiha mislsiz hisoblanadi, bozor uchun va ikkita xalqaro moliyaviy institutning integratsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi", — dedi "UNISStream" bosh direktori Suren Ayriyan.

"Biz Rossiya va MDH dagi yetakchi pul o'tkazmalari operatori bilan hamkorlikka katta umid bog'layapmiz. Bu hamkorlik kiruvchi o'tkazmalar hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turuvchi Xitoy bozoriga pul o'tkazmalarini yangi darajaga olib chiqishi tufayli "Deutsche Bank" uchun ham, "UNISStream" uchun ham birdek foydalidir", — dedi "Deutsche Bank" Rossiya va MDH moliya institutlari bo'yicha to'lov-kliring xizmati boshqarmasi direktori Tim Fayf.

S. Ayriyaning ta'kidlashicha, ushbu vaziyatda tizimning mijozlar uchun jozibadorligi taklif etilayotgan xizmatlarning sifatiga bog'liq bo'ladi, mahsulotlar safining kengligi esa ushbu spektrning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

"Bozordagi tariflar deyarli tenglashib qolgan bugungi kunda, mijoz asosiy e'tiborni tizimning qanday rivojlanganligiga hamda qadamli yo'l va u yoki bu operator tomonidan taqdim etiladigan qo'shimcha servislarga qaratadi" — dedi S. Ayriyan.

Uning ta'kidlashicha, 2009 yilni butun dunyo bo'ylab 190000 punkt bilan yakunlagan "UNISStream" joriy yilda elektron to'lovlar sohasidagi integratsiyalashuv hisobiga mahsulotlar safini rivojlantirish bo'yicha o'z siyosatini jadallashtirishni nazarda tutgan.

Eslatib o‘tish joizki, 2011 yil boshida “Ahbor-Reyting” reyting agentligi bankka ilgari, 2010 yil to‘rtinchi choragi natijalariga ko‘ra, “uzB” milliy shkalasi bo‘yicha berilgan “Barqaror” prognozli kredit reytingini tasdiqlagan edi. Bu bankning o‘z moliyaviy majburiyatlarini yuqori darajada o‘z vaqtida va to‘liq bajarish qobiliyatiga ega ekanini ko‘rsatadi.

Birinchi chorakda operatsiya tavakkalchiliklarini boshqarish tizimi joriy etildi va bu xizmat ko‘rsatish sifatini bosqichma-bosqich oshirish hamda bankning kundalik faoliyatida yuzaga keladigan yashirin xavflarni kamaytirish orqali korporativ boshqaruv tizimini va moliyaviy ko‘rsatkichlarni yaxshilash imkonini berdi.

“Universalbank” xususiy ochiq aksiyadorlik tijorat banki 2002 yilning mayida 0,05 milliard so‘m nizom jamg‘armasi bilan tashkil etilgandi. 2011 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, bank aktivlari 33,8 milliard so‘mni tashkil qildi. Kichik biznes korxonalari va xususiy tadbirkorlar, shuningdek, chakana mijozlar bankning asosiy mijozlari hisoblanadi.

O‘tgan yili “Universalbank” xususiy ochiq aksiyadorlik tijorat bankida korporativ boshqaruvni, operatsiya tavakkalchiliklarini nazorat qilishni kuchaytirish, bozor ulushini ko‘paytirishga qaratilgan keng ko‘lamli qayta tashkil etish ishlari boshlangan edi. Qayta tashkil etish ishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrda qabul qilingan “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq amalga oshirilmoqda. Qabul qilingan rivojlanish strategiyasiga binoan bank kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xizmat ko‘rsatadigan o‘rta banklar orasida peshqadamlardan biri bo‘lishga harakat qilmoqda.

“Universalbank” bu borada Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi talablariga amal qilgan holda, operatsiya tavakkalchiliklarini boshqarish tizimini bosqichma-bosqich joriy etmoqda. Loyihadan ko‘zlangan maqsad bankning biznes-jarayonlarni oqilona tashkil etish va optimallashtirish, xavfli voqealar yuzaga kelish ehtimoli bor tavakkalchiliklarni kamaytirish, bankning ishonchlilik

reytingini ko‘tarish, shuningdek, bank xizmatlarining investitsion jozibadorligi va sifatini oshirishning samarali vositasi sifatida tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini qo‘llash bo‘yicha jahon amaliyotiga muvofiqligini ta’minlashdan iborat.

Bankda joriy etilayotgan tizim o‘z operatsiya tavakkalchiliklarini baholash, operatsiya tavakkalchiliklarini qoplash uchun kapitalga bo‘lgan iqtisodiy asoslangan ehtiyojni aniqlash, o‘z tavakkalchilik-menejment modelini ishlab chiqish imkonini beradi. Bankda operatsiya tavakkalchiliklarini boshqarish tizimini joriy etish doirasida nazorat tizimi ishlashining asosiy prinsip va qoidalarini belgilashga yordam beradigan qator me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Bunda Bazel qo‘mitasi tomonidan taklif etilgan operatsiya tavakkalchiliklarini hisob-kitob qilishning standart uslubi asosida tuzilgan operatsiya tavakkalchiliklarini baholashning avtomatlashtirilgan tizimi ko‘maklashadi.

“Universalbank”da operatsiya tavakkalchiliklarini boshqarish tizimini yanada rivojlantirish xodimlar o‘rtasida korporativ madaniyat darajasini, biznes-jarayonlarni boshqarishni oshirish, biznes-jarayonlarda qaltis voqealar yuzaga kelishi ehtimolini kamaytirish, mijozlarga taqdim etilayotgan mahsulotlar va xizmatlarning sifati hamda ishonchliligini oshirish imkonini beradi.

“Universalbank” har oy aholi uchun kamida 1-2 yangi omonat turini taklif etadi. Bunda taklif etilayotgan omonatlar shartlarini yaxshilash va bank aylanmasiga mablag‘larni jalb qilish maqsadida omonatchilar istaklari o‘rganilmoqda. Ayni paytda “Universalbank” mijozlar uchun milliy valyutadagi 20 va xorijiy valyutadagi uchta omonat turini taklif etmoqda. “Universalbank” Omonatlarni kafolatlash jamg‘armasi a‘zosi hisoblanadi va bu davlat tomonidan mablag‘larning yuz foiz qaytarilishini kafolatlaydi.

Bank “Migom” va “Lider” pul o‘tkazmalari tizimlari bilan shartnoma imzoladi va bunday tizimlar soni to‘rttaga yetdi. Masalan, Yevropa trast bankida tashkil etilgan hisob-raqam ochmasdan jismoniy shaxslarning pul o‘tkazmalarini amalga oshirish “Migom” xalqaro tizimi mamlakatimizda ommalashib borayotir va u pul o‘tkazmalarini imkon qadar tez o‘tkazilishini kafolatlaydi.

“Lider” tizimi esa butun dunyoga mablagʻlarni tez oʻtkazish, shuningdek, turli provayderlar manzillariga xizmat va servis uchun toʻlovlarni qabul qilish xizmatlarini taklif etadi. Bu tizim jismoniy shaxslarga pulni manzilsiz oʻtkazish imkonini beradi, yaʼni pul oʻtkazmasini u kelib tushadigan mamlakatdagi tizimning istalgan punktida past tariflarda – AQSh dollari va yevroda 0,5 foizda olish, tizimning internet-sayti orqali onlayn rejimida kuzatishga yordam beradi. Bankda bundan oldin “Western Union” va “Tezkor pochta” tizimlari joriy etilgan.

Xozirgi kunda biz pul oʻtkazmalariga Oʻzbekiston Respublikasi ichida va tashqi mamlakatlar orqali Oʻzbekiston pochta AJ va kichik xususiy firmalarni xam misol qilishimiz mumkin(e-pay).

Elektron pul oʻtkazmalari Oʻzbekiston Respublikasining pochta aloqa shaxobchalari bank orqali amalga oshiriladi.


1.2. Elektron pul oʻtkazmalari tizimining ishlash jarayoni

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan pochta va telegraf oʻtkazmalari oʻrniga Axborot tizimlaridan foydalanilgan elektron pul oʻtkazmalari paydo boʻldi. Bu davrgacha pul oʻtkazmalari pochta orqali joʻnatilgan va telegraf aloqasi paydo boʻlishi bilan pul oʻtkazmalari telegraf orqali joʻnatilgan.

Elektron pul oʻtkazmalari tizimi – dasturiy, texnik vositalar va telekommunikatsiyalar kompleksidan foydalangan holda tizim foydalanuvchilariga ularning soʻrovlariga koʻra pul oʻtkazmalari boʻyicha Axborot kiritish, saqlash, uzatish va berish operatsiyalarini amalga oshirish uchun moʻljallangan Axborot tizimidir.

«Elektron pul oʻtkazmalari» xizmatining mohiyati pul oʻtkazmalari toʻgʻrisidagi Axborotni maʼlumotlar uzatish kanallari boʻylab muhofazalangan koʻrinishda, xususan qogʻoz eltuvchilarda takrorlamasdan uzatishdan iborat. Elektron pul oʻtkazmalari tizimining ishlash jarayoni 1.1-rasmda keltirilgan.

1.1-rasm. Elektron pul oʻtkazish tizimini ishlash jarayoni



Elektron pul o'tkazish tizimini ishlash jarayoni yuqoridagi sxema orqali amalga oshiriladi. Bularning xar bittasiga aloxida-aloxida ta'rif beradigan bo'lsak:

1. Xodimining ishchi joyi – bu elektron pul tizimini amalga oshiradi, uni boshqaradi va tizimni nazorat qiladi.


2. Modem – bu qurilma elektron pul o'tkazmalarini global tarmoqda amalga oshirish uchun kerak bo'ladi. Lekin bu usul kooperativ tarmoqda qo'llanilmaydi.

3. Tarmoqlararo ekran – bu elektron pul o'tkazmalarini kuzatib borishni ta'minlaydi ya'ni provaydir vazifasini bajaradi.

4. Kommutator – bu pul o'tkazmalarini o'tishini ta'minlovchi qurilma.

5. Elektron pul o'tkazma Server – bu pul o'tkazmalarni qabul qiladigan va xamma amallarni boshqarib turadigan server vazifasini bajaradi.

Elektron pul o'tkazmalarini global loyixalashda ikki xil modemdan foydalansa bo'ladi. Bular Dial-up va ADSL modamlari orqali bajarish mumkin.(1.2-rasm.)



1.2-rasm. Modem orqali amallar bajarilishi.

Endi pul jo'natish va pul o'tkazish xizmatini juda oson va tez amalga oshirish mumkin.

Pul jo'natmasi yuqori himoya darajasiga ega bo'lib, har qanday masofaga sanoqli daqiqalar ichida va naqd pulda faqatgina ko'rsatilgan shaxsga berilishi kafolatlangan holda amalga oshiriladi. Jo'natma uchun vositachilik haqini faqatgina pul jo'natuvchi to'laydi. Jismoniy shahslar uchun pul o'tkazmasining maksimal miqdori – kuniga 500 AQSH dollariga teng. Siz pul o'tkazmasini qaysi usul orqali amalga oshirishni o'tkazma maqsadi, miqdori, o'tkazma amalga oshirish muddati shuningdek, bank vositachilik haqi miqdoriga ko'ra tanlashingiz mumkin.

«Trastbank» XAB Sizga quyidagi pul o'tkazmalari turlarini taklif etadi:

Pul o'tkazmalarining nomi va ular haqida ma'lumot	To'lov muddati	Pul birligi	To'lov geografiyasi	O'tkazmani jo'natish uchun olinadigan vositachili haqi	Saytlar
 1871 yildan beri ishlatilib kelinayotgan ishonchli pul o'tkazmasi, hozirgi kundagi eng yirik tezkorpul o'tkazmalari tizimi	1-2 daqiqa	AQSH dollarida	Dunyoning 200 ga yaqin davlatlari	MDH davlatlariga 1%-1.7% va undan yuqori, boshqa mamlakatlar, o'tkazma summasiga qarab 2%-26% va undan yuqori. Hitoy halq Respublikasiga esa 1%-15% gacha.	O'tkazmalarning manzilsiz ekanligi O'tkazmaning joriy holatini www.westernunion.ru rasmiy saytida tekshirish mumkinligi

Pul o'tkazmalarining nomi va ular haqida ma'lumot	To'lov muddati	Pul birligi	To'lov geografiyasi	O'tkazmani jo'natish uchun olinadigan vositachili haqi	Saytlar
 Davlat va xizmat ko'rsatish shahobchalari bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turuvchi Halqaro muddatli pul o'tkazmalari	1-2 daqiqa	AQSH dollarida	Dunyoning 190 ga yaqin mamlakatlari	MDH davlatlariga 2% va undan yuqori, boshqa mamlakatlar, o'tkazma summasiga qarab 1%-3% va undan yuqori. Hitoy halq Respublikasi a esa 1% dan 3% gacha.	O'tkazmalarning manzilsiz ekanligi www.moneygram.com
 Halqaro bank-korrespondentlar va ixtisoslashtirilgan horijiy kompaniyalarni amaliy ifodalovchi halqaro pul o'tkazmalari tizimi.	1-2 daqiqa	AQSH dollarida	Dunyoning qariyb 86 mamlakati	O'tkazma summasidan kelib chiqqan holda 2%-3% dan boshlanadi	O'tkazmalarning manzilsiz ekanligi O'tkazish jarayonining joriy holatini www.contact-sys.com/transferstatus.html rasmiy saytida tekshirish mumkinligi
 "YUnistrim" bazasida jismoniy shahslar uchun nobank halqaro pul o'tkazmalari tizimi.	1-2 daqiqa	AQSH dollarida va EVRO da	Dunyoning qariyb 90 mamlakati	O'tkazma summasi hamda qabul qiluvchi bankdan kelib chiqqan holda 0,1%-2% va undan yuqori	O'tkazmalarning manzilsiz ekanligi O'tkazmaning holatini www.online.unistream.ru/tracking/index.aspx rasmiy sayti orqali tekshirish mumkinligi
 Moliya texnologiyalari markazi (Novosibirsk sh.) tomonidan ishlab chiqilgan nobank halqaro pul o'tkazmalari tizimi	1-2 daqiqa	AQSH dollarida	MDH va Hitoy	O'tkazma summasi miqdoridan qat'iy nazar, 1,5% Hitoyga o'tkazmalar o'tkazma summasidan qat'iy nazar 25 AQSH dollari	O'tkazmaning manzilsiz ekanligi O'tkazmaning joriy holatini www.perevodkorona.com rasmiy sayti orqali tekshirish mumkinligi Hitoyga o'tkazmalar «Bank of China» bankida, qabul qiluvchining ilgari ochilgan SWIFT

Pul o'tkazmalarining nomi va ular haqida ma'lumot	To'lov muddati	Pul birligi	To'lov geografiyasi	O'tkazmani jo'natish uchun olinadigan vositachili haqi	Saytlar
					bo'yicha ochgan hisobiga o'tkaziladi O'tkazmani etkazish muddati 3 bank ish kuni
 "Aziya-Ekspress" halqaro pul o'tkazmalari tizimi. - Pul o'tkazmalarining asosiy yunalishlari O'zbekiston-Rossiya, hamda MDH davlatlari. MOPS pul o'tkazmalari tizimi bilan hamkolikda.	1-2 daqiqa	AQSH dollarida va EVRO da	Pul o'tkazmalarini ng asosiy yo'nalishlari O'zbekiston-Rossiya	O'tkazma summasining 1.4% miqdorida	O'tkazmalarning manzilsiz ekanligi O'tkazma holatini www.ai-bank.ru/asia_express/rasmiy sayti orqali tekshirish mumkinligi

2012-yil 11-dekabr kuni O'zbekiston matbuot markazida «O'zbekiston pochta AJ» OAJ tomonidan jurnalistlar ishtirokida "Pochta aloqasi sohasini zamonaviylashtirish, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida xizmatlarning yangi turlarini joriy etish va rivojlantirish" mavzusiga bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkazildi.

«O'zbekiston pochta AJ» OAJ 2005-yildan Butunjahon pochta ittifoqining IFS moliyaviy tizimiga 14 ta filial bilan elektron pul o'tkazmalari tizimi ishga tushirilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu tizimga 945ta pochta aloqasi ob'yektlari bog'langan.

2012-yilning 9 oyida ushbu xizmatdan 28,4 mlrd. so'mlik elektron pul o'tkazmalari amalga oshirildi va 1 689,5 mln. so'm daromad olindi. 2012-yilning mart oyidan boshlab gibrid pul o'tkazmalarini tizimi joriy etildi va iyun oyidan to'liq elektron shaklda qabul qilish yo'lga qo'yildi. 2007-yilda Jamiyat tomonidan «To'lovlarni qabul qilish avtomatlashtirilgan tizimi» dasturi yaratildi va bugungi

kunda 945ta pochta aloqasi obyektlari ulandi. Kommunal xizmatlarni ko'rsatuvchi korxonalarda yagona to'lovlarni qabul qilish tizimi mavjud bo'lmaganligi sababli dasturdan faqat pochta aloqasi obyektlarida foydalanilgan. 2010-yil avgust oyidan Axborot-ma'lumot tizimini Internet asosida (IBIS) qo'llagan holda posilka bo'yicha e'tiroznomalari (reklamatsiya) almashinuvi amalga kiritildi. Bu o'z navbatida, Jamiyatga 5 foiz miqdorida kiruvchi quruqlikdagi tarif ulushidan (suxoputnoy doli) qo'shimcha rag'batlantirish olinmoqda (yiliga o'rtacha 120,0 mln. sum). 2008-yildan S10 xalqaro standartiga muvofiq xalqaro pochta jo'natmalariga shtrixkodlar yopishtirish yo'lga qo'yildi.

2011-yildan «Ro'yxatga olinuvchi pochta jo'natmalarini nazorat qilish tizimi» joriy etilib, tizimga filiallarning 15ta pochta almashinuv punktlari, 174ta PAT'lardagi saralash uchastkalari hamda «Xalqaro pochtamt» filialining ish joylari bog'langan. Mazkur tizimda Butunjahon pochta ittifoqining PNG tizimi vositasi orqali 16ta davlatlar bilan (jumladan: Germaniya, Belgiya, Eron, Rossiya, Amerika va boshqalar) pochta jo'natmalariga tegishli elektron ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yilgan. Mazkur tizimni bosqichma-bosqich boshqa davlatlarni bog'lash bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

«Ro'yxatga olinuvchi pochta jo'natmalarini nazorat qilish tizimi»ning amalga kiritilishi natijasida pochtani qayta ishlash texnologik jarayonini shtrixkodlar ishlatgan holda avtomatlashtirish va pochta jo'natmalarini Internet orqali kuzatish imkoniyati yaratildi. Bu uz navbatida hamkor-davlatlar bilan kiruvchi posilkalar bo'yicha hajmiy me'yorlarning bajarilishi elektron ma'lumot almashinuvining (EDI) yaratilishiga olib keldi hamda ushbu me'yorning EeaF hodisaning bajarilganligi uchun Jamiyatga 5 foiz miqdorida kiruvchi quruqlikdagi tarif ulushidan (suxoputnoy doli) rag'batlantirish olinmoqda (yiliga o'rtacha 124,0 mln. sm).

Olib borilgan ishlar natijasida 2011-yilning 9 oyida kiruvchi pochta hajmi 485 tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilning shu davrida 575 tonnani tashqil etdi. Jamiyat sayti orqali ro'yxatga olinuvchi pochta jo'natmalari to'g'risidagi ma'lumotlarni kuzatish tizimi yo'lga qo'yilgan. Ushbu tizimlarning joriy etilishi

natijasida e'tiroznomalarni ko'rib chiqish muddatlari qisqartirildi hamda ularga ketadigan xarajatlarning kamayishiga erishildi (qog'oz, printer katridjlari hamda ish jarayonlaridagi amallarining qaytarilishi kamaydi).

Jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan «Pensiya to'lovlari hisob-kitobi va nazorati avtomatlashtirilgan tizimi»ni 2012-yilning fevral oyidan Moliya Vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi tomonidan yaratilgan «Pensiya» dasturiga bog'lanish maqsadida mavjud dasturni modernizatsiyalash bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda ushbu tizimga «Toshkent pochta» filialining barcha pochta aloqa bo'limlari bog'landi.

Mazkur dasturni joriy etish natijasida pensiya va nafaqa to'lovlari bo'yicha bitta summaning ikki marta to'lanishi, to'lov miqdorini oshirib to'lanishining oldini oladi hamda ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirilishiga olib keladi. (qog'oz, printer katridjlari hamda ish jarayonlaridagi amallarining qaytarilishi kamaydi). «Obuna» avtomatlashtirilgan tizimi dasturi yaratildi va «Toshkent pochta» filialida sinovdan o'tkazilib, joriy etildi. Bugungi kunda ushbu dasturni Jamiyat tarkibidagi filiallarda joriy etish maqsadida dasturga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda. Hozirda obunani Internet orqali rasmiylashtirish bo'yicha dastur ishlab chiqilmoqda

Endilikda Rossiyaga jo'natilgan pul o'tkazmalari ancha tez yetib boradi. Bu "O'zbekiston pochta AJ" ochiq aksiyadorlik jamiyati va "Rossiya pochta" o'rtasida tuzilgan elektron pul o'tkazmalari almashinuvi to'g'risida imzolangan bitim natijasidir.

Endi O'zbekiston Respublikasi hududida pulni milliy valyutada yuborish va qabul qilib olish mumkin. Elektron pul o'tkazmalari Rossiya Federatsiyasida Rossiya rublida to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasidan milliy valyutada yuboriladigan elektron pul o'tkazmasi miqdori "O'zbekiston pochta AJ" ochiq aksiyadorlik jamiyatining Pul o'tkazmalari nazorati markazida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

tomonidan belgilangan Rossiya rublini sotish kursi bo'yicha rublda qayta hisoblanadi. Bu jarayon Butunjahon pochta uyushmasining Xalqaro moliya tizimiga ma'lumot yuborish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ushbu xizmat turi "O'zbekiston pochta AJ" ochiq aksiyadorlik jamiyati pochta aloqasining barcha tuman bo'linmalarida ko'rsatiladi.

Rivojlanish strategiyasi. Yurtimiz Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish strategiyasi 2013-2020 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining milliy Axborot-kommunikatsiya tizimini kompleks rivojlantirish dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Mazkur dastur Prezidentimizning 2013 yilning 27 iyunidagi qarori bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida Aloqa, Axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi oldiga Milliy Axborot-kommunikatsiya tizimini kompleks rivojlantirish dasturida belgilangan loyiha va chora-tadbirlarni o'z vaqtida bajarish vazifasi qo'yilgandi.

Telekommunikatsiyalar infratuzilmasi AKTni rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida bu yo'nalishda qator natijalarga erishildi.

Xalqaro Axborot tarmoqlaridan foydalanish umumiy tezligi 2014 yil davomida 42,3 foizga o'sdi va 15,5 Gbit/s.ga yetdi.

Operator va provayderlar uchun internet-xizmatlari (tashqi kanal) tarifi 1 Mbit/s. uchun 276,27 AQSh dollarigacha tushirildi. Narxlarning pasayishi 2014 yilda 11,6 foizni tashkil etdi.

"Bo'zatau-Qo'ng'iro't", "G'uzor-Boysun", "Denov-Uzun-Sharg'un", "Jaslik-Qoraqalpog'iston", "Mo'ynoq-Qibla Ustyurt", "Uzun-Tojikiston chegarasi" uchastkalarida zamonaviy texnologiyalar asosida kengpolosali aloqani ta'minlovchi 2000 km.dan ortiq optik tolali aloqa liniyasi qurildi. Natijada ushbu tarmoq orqali mijozlarga videotelefoniya, internet-televideniye, yuqori tezlikdagi internet, HDTV-kanallar va boshqa xizmatlarni ko'rsatish imkoni yaratildi.

Internetga kengpolosali ulanish xizmatlarini ko'rsatish uchun o'rnatilgan portlar soni 640 mingga oshirildi, foydalanilayotgan portlar soni esa 135,1 foizga o'sdi.

Yirik loyihalarning amalga oshirilishi simsiz aloqaning taraqqiy etishiga ham xizmat qilmoqda. Bugungi kunda mobil aloqa operatorlari to'rtinchi avlod tarmog'i – 4G (LTE)ni joriy qilishmoqda. Ushbu texnologiyalar internet-foydalanuvchilarning AKTdan foydalanish imkoniyatlarini yanada oshiradi.

“O'zbektelekom” AK chaqiriqlarga xizmat ko'rsatuvchi Yagona markaz loyihasini joriy etish doirasida respublikamizning barcha hududlarida 13ta mintaqaviy markazlar tashkil etildi. Mazkur loyihaning amalga oshirilishi telekommunikatsiya va internet-xizmatlar ko'rsatish sifatining yanada yuqori bosqichga chiqishini ta'minlaydi.

Mahalliy telekommunikatsiya tarmoqlarini yangi avlod texnologiyalari asosida modernizatsiya qilish ishlari davom etmoqda. Joriy yil davomida respublikamiz bo'ylab 26ta zamonaviy kommutatsiya uskunalarining ekspluatatsiya qilinishi telefon raqamlari sig'imini sezilarli miqdorda oshirishga imkon berdi.

Mamlakatimiz rahbarining “Xitoy Xalq Respublikasi Davlat taraqqiyot banki ishtirokida O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiyalar tarmog'ini modernizatsiya qilish va investitsion loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga ko'ra telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha 117,6 mln. AQSh dollariga teng (shu jumladan, Xitoy Davlat taraqqiyot banki tomonidan ajratilgan 100 mln. AQSh dollaridagi kredit vositalari hisobiga) loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu yirik loyihalar magistral ma'lumotlar uzatish tarmoqlari imkoniyatini kengaytirishga qaratiladi: xalqaro yo'nalishda — 10 barobarga (100 Gbit/s.gacha), viloyatlar markazlarida — 4 barobar (40 Gbit/s.gacha) va tumanlar markazlarida — 10 barobar (10 Gbit/s.gacha).

O'zbekiston Respublikasida 2014–2015 yillar davomida Wi-Fi texnologiyasi bo'yicha kengpolosali ulanish tarmoqlarini rivojlantirish dasturi ham amalga oshirilyapti. Mazkur dasturdan ko'zlangan maqsad – barcha viloyatlarda, jumladan aeroportlarda, vokzallarda, sayyohlar ko'p tashrif buyuradigan joylarda, istirohat

bogʻlari, savdo markazlari va boshqa jamoatchilik joylarida simsiz kengpolosali ulanishni tashkil qilishdan iborat.

Pochta tizimida Axborot kommunikatsiya texnologiyalari. Pochta joʻnatmalari yetkazilishi muddatlarini qisqartirish maqsadida 2014 yili 114ta avtomobil transporti xizmati shakllantirildi, ulardan 483 yoʻnalishda foydalanilmoqda.

Joriy yilning oktyabr oyida “Oʻzbekiston pochta AJ” AJ “PRIME” tizimiga ulandi. Mazkur tizim xalqaro joʻnatmalarni tez va samarali qidirish, “IBIS” xalqaro tizimi orqali xorijiy pochta maʼmuriyatlari bilan elektron maʼlumot almashishni yoʻlga qoʻyish orqali pochta xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi.

“Oʻzbekiston pochta AJ” AJning istiqboldagi asosiy vazifalaridan biri pochta aloqasi tizimini modernizatsiya qilish, AKT bazasida yangi xizmat turlarini joriy etish va rivojlantirish hisoblanadi. Jamiyatda korporativ tarmoq tashkil etilib, uning bazasida bir nechta avtomatlashgan tizimlar ishi yoʻlga qoʻyilgan:

- elektron pul oʻtkazmalari;
- gibrid pul oʻtkazmalari;
- toʻlovlarni qabul qilish;
- pensiya va nafaqalarni toʻlash hisobi;
- roʻyxatga olingan pochta joʻnatmalari va boshqalarning monitoringi.

Korporativ tarmoqqa jami boʻlib “Oʻzbekiston pochta AJ” AJning 15 filiali, 174 pochta aloqasi tarmogʻi, 1522 pochta aloqasi boʻlimi va 2758 avtomatlashtirilgan ish oʻrni ulangan.

Milliy matbuot markazida “Oʻzbekiston pochta AJ” AJ tomonidan “Milliy operator faoliyatining asosiy strategik yoʻnalishlari” mavzuida matbuot anjumani tashkil etildi.

Tadbirda jamoatchilik vakillariga pochta aloqasi sohasini rivojlantirish, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida koʻrsatilayotgan xizmatlarni kengaytirish va rivojlantirish borasida “Oʻzbekiston pochta AJ” AJ tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida maʼlumot berildi.

Jamiyatning korporativ kompyuter tarmogʻiga ulangan “Elektron pul oʻtkazmalari”, “Pensiya toʻlovlari hisob-kitobi va nazorati avtomatlashtirilgan

tizimi”, “To‘lovlarni qabul qilish avtomatlashtirilgan tizimi”, “Obuna” avtomatlashtirilgan tizimi, “Ro‘yxatga olinuvchi pochta jo‘natmalarini nazorat qilish tizimi”, “O‘zbektelekom” AK “O‘zbekenergo” DAK va “UZTRANSGAZ” AKning billing avtomatlashtirilgan tizimlari orqali aholiga keng xizmatlar ko‘rsatib kelinmoqda.

2015 yilning 15 sentyabridan boshlab Jamiyat tomonidan “To‘lovlarni qabul qilish avtomatlashtirilgan tizimi” negizida yaratilgan “Gaz uchun to‘lovlarni qabul qilish avtomatlashtirilgan tizimi” moduli (GazTQQAT) foydalanishga topshirilgan bo‘lib, ushbu tizim orqali kompyuterlashtirilgan pochta aloqasi ob‘ektlarini bog‘lagan holda tabiiy gaz uchun to‘lovlarni “Onlayn” rejimida qabul qilish ishlari boshlangan. “GazTQQAT” bilan “UZTRANSGAZ” AKning billing tizimi o‘rtasida ma’lumotlarni “Onlayn” rejimida almashish yo‘lga qo‘yilgan. “Gaz to‘lovlarni qabul qilish avtomatlashtirilgan tizimi”ga 1727 ta pochta aloqasi ob‘ektlari bog‘langan.

Jamiyatning hududiy filiallarida OAT “Aloqabank” va boshqa banklar bilan hamkorlikda bank plastik kartochkasi orqali pul to‘lovlarni qabul qilish bo‘yicha terminallar o‘rnatilib, aholiga xizmat ko‘rsatib kelayotgan pochta aloqasi ob‘ektlarining soni 2016 yil 1-chorakda 2152 taga yetkazildi (2015 yil 1-chorakda 1656 ta bo‘lgan edi).

O‘zbekiston Respublikasining yagona davlat interaktiv xizmatlari portali orqali Jamiyatning 5 ta interaktiv xizmatlari ko‘rsatib kelinmoqda. Ushbu xizmatlar bo‘yicha mas’ullar tayyorlangan va ular xizmatlarning sifatli va o‘z vaqtida ko‘rsatilishini nazorat qilib bormoqdalar. Shuningdek, saytda mijozlarga qulaylik yaratish uchun pochta blankalaridan elektron ko‘rinishda nusxa olish va to‘ldirish uchun mo‘ljallangan blankalarning elektron nusxalari tayyorlangan va ular saytning “Blankalar” qismiga joylashtirib qo‘yilgan.

“O‘zbekiston pochta AJ” AJ Ichki ishlar vazirligining Toshkent shahar DAI boshqarmasi bilan hamkorlikda Toshkent shahrida avtotransportda xarakatlanish qoidalarini buzuvchilarga tayinlangan jarimalar haqidagi xabarnomalarni yetkazish

va yetkazilganligi haqidagi ma'lumotlarni DAIGA taqdim etish xizmatini joriy etish bo'yicha hamkorlik qilinmoqda.

Endi O'zbekiston Respublikasi hududida pulni milliy valyutada yuborish va qabul qilib olish mumkin. Elektron pul o'tkazmalari Rossiya Federatsiyasida Rossiya rublida to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasidan milliy valyutada yuboriladigan elektron pul o'tkazmasi miqdori "O'zbekiston pochta AJ" ochiq aksiyadorlik jamiyatining Pul o'tkazmalari nazorati markazida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan Rossiya rublini sotish kursi bo'yicha rublda qayta hisoblanadi. Bu jarayon Butunjahon pochta uyushmasining Xalqaro moliya tizimiga ma'lumot yuborish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ushbu xizmat turi "O'zbekiston pochta AJ" ochiq aksiyadorlik jamiyati pochta aloqasining barcha tuman bo'linmalarida ko'rsatiladi.

II. POCHTA ALOQASI KORXONASIDA ELEKTRON PUL O‘TKAZMALARNI TIZIMI VA UNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI

2.1. Pochta aloqa korxonalarida elektron pul o‘tkazmalari xizmatini yo‘lga qo‘yish yo‘nalishlari.

Pul o‘tkazmalari tarixdan pochta orqali jo‘natilgan. Telegraf aloqasi paydo bo‘lishi bilan pul o‘tkazmalari telegraf orqali jo‘natilgan. Pul vositalarining pochta o‘tkazmalari – pochta aloqasi tarmog‘i va telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda pul vositlarini yetkazib berish xizmatidir.

Pochta pul o‘tkazmalari xizmat turini taqdim etish tartibi, pochta aloqasida, 2003- yilning 16-iyunidagi “Pochta aloqasi xizmatlarini taqdim etish qoidolari” asosida amalga oshiriladi” Pochta pul o‘tkazmalari pochta aloqasi vositalari bilan jo‘natiladi, «tezkor» pul o‘tkazmalari esa – telegraf bilan jo‘natiladi.

2005 yildan boshlab Toshkent shahri va viloyat markazlari o‘rtasida tashkil etilgan elektron pul o‘tkazmalari (EPO‘) tizimi orqali axoliga xizmat ko‘rsatish ishlari yo‘lga qo‘yildi hamda jamiyat apparatida elektron pul o‘tkazmalarini nazorat qilish markazi (EPO‘NQM) ishga tushirildi.

Ushbu Axborot asosida Pochta pul o‘tkazmalarini nazorat qilish markazi har bir pochta o‘tkazmasini qabul qilish va to‘lash to‘g‘risidagi ma’lumotlarning solishtirilishini amalga oshiradi. Agar qabul qilish bo‘yicha ma’lumotlar va to‘lash bo‘yicha ma’lumotlar o‘rtasida mos kelmaslik holatlari aniqlansa, xizmat tekshiruvi o‘tkaziladi.


AATni qurish prinsipi pochta aloqasidagi boshqa AATga o‘xshash: Pul o‘tkazmalari bo‘yicha ma’lumotlar bazasi, AAT foydalanuvchilarining ma’lumotlar bazasidan foydalana olish uchun ilovalar serveri. AAT foydalanuvchilari quyidagilar hisoblanadi: pul o‘tkazmalarini qabul qilish va to‘lashni amalga oshiruvchi pochta aloqasi ob’ektlarining operatorlari, pochta aloqasi ob’ektlarida pul o‘tkazmalarini qabul qilish va to‘lash nazoratini ta’minlovchi nazorat qiluvchi shaxslar, Pochta o‘tkazmalarini nazorat qilish markazi, kompaniya tahlilchilari.

Pochta aloqasida Elektron pul o‘tkazish tizimi dasturini ishlash jarayoni

Elektron pul utkazmalarini ishlash jarayonini quyidagi misollarda ko'rib chiqamiz:


Dasturni ishga tushirish va tugatish.

Dasturni ishga tushirishda dastlab monitor ekranidagi yuqori ung burchagida joylashgan piktogrammaga sichkoncha tugmasini bosish kerak.



Ushbu amal bajarilgach ekranda xosil bulgan oynadan «Potklyuchenie» bulimiga bosiladi va bir oz kutiladi. Ushbu amal bajarilgach ekrannning quyi ung burchagida tizimga ulanilganlik belgisi xosil buladi.


Birinchii amal bajarilgach ikkinchi amal bajarilishda monitor ekranidagi yuqori ung burchagida joylashgan 2-piktogrammaga sichkoncha tugmasini ikki marotaba bosiladi va ekranning ung quyi burchagida rasmda ko'rsatilgan tarzda belgi ishga tushiriladi va elektron raqamli imzo kompyuterga kiritiladi. Xosil bo'lgan oynadan o'zingizga kerakli bulgan operator yoki nazoratchi elektron imzo raqami tanlaniladi va «Voyti v SM» bulimiga sichkoncha tugmasi so'ngra so'rov




oynasidan «DA» tugmasiga bosiladi. Bir oz kutilgan tanlangan elektron imzo yashil xolatga kelgach «Skrit» tugmasiga bosiladi.

Ikkinchi amal bajarilgach uchinchi amal bajarilishda monitor ekranidagi yuqori ung burchagida joylashgan 3-piktogrammaga sichqoncha tugmasini ikki marotaba bosiladi. Xosil bo`lgan oynadagi «Polzovatel» yozuvi to`g`risiga foydalanuvchi logini «Parol» bulimiga kerakli parol kiritilib «Vxod v sistemu» tugmasi bosiladi.

Yuqoridagi amallar bajarilgach ekranda quyidagi oyna xosil buladi. Ushbuga elektron imzo paroli kiritiladi va «OK» tugmasi bosiladi.



Yukoridagi amallar bajarilgach ekranda kuyidagi dastur ishga tushadi. Shu tarzda dasturda ishlashga tayyor xisoblaniladi.



- Dastur ishini yakunlashda dastlab Internet Explorer dastruri yopiladi.
- Sungra Cmclient dasturi ochilib undan vigruzit amali bajariladi xamda kompyuterdan
- Elektron rakamli imzo chiqarib olinadi.
- Dastlab ishga tushirilgan «EDP» kanali ishga tushirilib undan Otklyuchit amali bajariladi.

Uzbekiston Respublikasida elektron pul utkazmalariga quyidagi misollarni kursatishimiz mumkin:

Elektron pul o'tkazmalarni ishlatish davomida quyidagi qo'llanma va qoidalardan foydalaniladi:

Avtomatlashtirilgan ish o'rinlarida pul o'tkazmalarini qabul qilish va topshirish bo'yicha elektron pul o'tkazmalari xizmatini ko'rsatish.

Mazkur qoidada O'zbekiston Respublikasining «Pochta aloqasi to'g'risida» va «Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunlari, hamda «Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalari» va «Pochta qoidasi» me'yoriy xujjatlari asosida ishlab chiqilgan va u hududiy (viloyat) pochta aloqa korxonalari, pochta aloqa tarmoqlari, pochtaamt, aloqa bo'limlari (pochta aloqa obektlari) ning

muomala zallaridagi avtomatlashtirilgan ish o‘rinlarida elektron pul o‘tkazmalari(EPO‘) ni qabul qilish, ishlab chiqish, jo‘natish va to‘lashning yagona tartibini joriy qiladi.

Mazkur qoidada kuyidagi terminlar aniqliklar ishlatilgan: Elektron pul o‘tkazmalari (EPO‘) tizimidagi avtomatlashtirilgan ish o‘rni: Elektron pul o‘tkazmalari (EPO‘) tizimi foydalanuvchisining Elektron pul o‘tkazmalari (EPO‘) tizimiga kirish va elektron pul o‘tkazmalari bilan amallar bajarish imkonini beradigan programmashtirilgan texnik vositalar bilan jihozlangan ish o‘rni.

- Muomala joyi(операционный окно): pochta aloqa obektlaridagi elektron pul o‘tkazmalarini qabul qilish va to‘lash bo‘yicha ish o‘rni.

- Muomala kuni(операционный день): elektron pul o‘tkazmalari tizimi foydalanuvchilarining pul o‘tkazmalari bilan amallar bajarish mumkin bo‘lgan ish vaqti.

- Elektron pul o‘tkazmalari bilan amallar: elektron pul o‘tkazmalari tizimidan foydalanib pul o‘tkazmalarini kiritish, jo‘natish va to‘lash imkonini beradigan amallar.

- Elektron pul o‘tkazmalari tizimidan foydalanuvchi: Pochta aloqa obektining Elektron pul o‘tkazmalari tizimida ishlash huquqi berilgan va zimmasiga ma’lum bir vazifani bajarish yuklatilgan xodim.

- Elektron pul o‘tkazmalari xizmatidan foydalanuvchi(jo‘natuvchi, oluvchi): elektron pul o‘tkazmalari xizmatidan foydalanuvchi jismoniy shaxs.

- Elektron pul o‘tkazmalari tizimi: Tizim foydalanuvchilari tomonidan pul o‘tkazmalari bo‘yicha ma’lumotlarni kiritish, saqlash, uzatish va programmashtirilgan, texnik vositalar va telekommunikatsiya kompleksidan foydalanib talab qilinganda ma’lumot taqdim etish uchun mo‘ljallangan tizim.

- Elektron pul o‘tkazmalari xizmati: Elektron pul o‘tkazmalari tizimi va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanib pul mablag‘larini jo‘natish bo‘yicha faoliyat.

- Elektron pul o'tkazmalarining «quldan qo'lga» xizmati: Elektron pul o'tkazmalari tizimiga ulangan pochta aloqasi obektlari (hududiy pochta aloqa korxonalari, pochta aloqa tarmoqlari, pochtaamt, aloqa bo'limlari)ning muomala zallaridagi avtomatlash-tirilgan ish o'rinlarida jismoniy shaxslardan pul o'tkazmalarini qabul qilish va jo'natilgan joy muomala zalidagi avtomatlash-tirilgan ish o'rinlarida pul o'tkazmalarini to'lash.

- Elektron pul o'tkazmalari Markazi (EPO' Markazi): Programmalar va texnik vositalardan foydalanib elektron pul o'tkazmalari xizmatlari ko'rsatishda ma'lumotlarni qabul qilish, ishlab chiqish, saqlash va uzatish faoliyatini yuritadigan tarkibiy birlik.

Mazkur qoida, Elektron pul o'tkazmalarining «quldan qo'lga» xizmati ko'rsatish bo'yicha talablarni belgilaydi va faqat jismoniy shaxslardan qabul qilingan ichki pul o'tkazmalariga aloqadordir.

Elektron pul o'tkazmalarining «quldan qo'lga» xizmati Elektron pul o'tkazmalari tizimiga ulangan pochta aloqasi obektlari operatorlarining avtomatlashtirilgan ish o'rinlarida ko'rsatiladi.

Mazkur xujjat talablari faqat Elektron pul o'tkazmalari tizimiga ulangan pochta aloqasi obektlariga daxldordir.

Elektron pul o'tkazmalari tizimiga ulangan pochta aloqasi obektlari muomala zallarida EPO' xizmatidan foydalanuvchilar uchun EPO' tizimida pul o'tkazmalarini qabul qilish, jo'natish va to'lash, shuningdek tariflar va EPO' qabul qilinadigan yo'nalishlar to'g'risida to'liq ma'lumotlar taqdim etilishi kerak.

Elektron pul o'tkazmalari tizimi orqali jo'natilayotgan pul o'tkazmalari bo'yicha hisobotlar «Pochta qoidalari» va boshqa me'yoriy xujjatlar tomonidan o'rnatilgan tartib asosida tuziladi.

Elektron pul o'tkazmalari tizimi foydalanuvchilariga talablar: Elektron pul o'tkazmalari (EPO') ni qabul qilish va jo'natish xizmati maxsus bilimga ega bo'lgan va malakalari talabga javob beradigan xodimlar tomonidan ko'rsatiladi.

Elektron pul o'tkazmalari tizimiga ulangan va elektron pul o'tkazmalari xizmatini ko'rsatuvchi pochta aloqasi tarmog'i (Pochtamt) da uch nafardan kam bo'lmagan Elektron pul o'tkazmalari foydalanuvchisi operator, nazoratchi va hisobchi bo'lishi kerak.

Elektron pul o'tkazmalari foydalanuvchilari «Elektron pul o'tkazmalari tizimi ekspluatatsiyasi bo'yicha foydalanuvchilar qo'llanmasi» ga amal qilishlari shart.

Elektron pul o'tkazmalari tizimi operatorining majburiyatlari:

- Belgilangan ish o'rinlarida jismoniy shaxslardan pul o'tkazmalarini qabul qilish va Elektron pul o'tkazmalari tizimiga kiritish.

- Belgilangan ish joylarida Elektron pul o'tkazmalari tizimi orqali kelgan pul o'tkazmalarini oluvchiga berish.

- Elektron pul o'tkazmalari xizmatlari ko'rsatilgan holllarda qabul qilingan va to'langan pul o'tkazmalari bo'yicha kassa ma'lumotnomasini tuzish.

Elektron pul o'tkazmalari tizimida nazorat qiluvchi shaxs majburiyatlari:

- Elektron pul o'tkazmalari tizimi bo'yicha operator qabul qilgan pul o'tkazmasining to'g'riligini nazorat qilish.

- Operatorning kassa ma'lumotnomasini nazorat qilish.

- Elektron pul o'tkazmalari Markaziga Elektron pul o'tkazmalari tizimida to'g'ri qabul qilingan pul o'tkazmalarini jo'natish.

- Pochta aloqa tarmog'i(Pochtamt)da Elektron pul o'tkazmalari tizimida qabul qilingan va to'langan pul o'tkazmalari holati bo'yicha monitoring o'tkazish.

- Operator tomonidan pul o'tkazmalarining to'g'ri to'lanishini nazorat qilish.

- Ish kuni boshiga va ish kuni oxiriga oxiriga solishtiruv o'tkazish.

Hisobchining majburiyatlari:

- Elektron pul o'tkazmalari xizmati ko'rsatishda pochta aloqa tarmog'I (Pochtamt) bo'yicha pul mablag'laring tushishi va ularni to'lanishini nazorat qilish.

- Pochta aloqa tarmog'i(Pochtamt) bo'yicha pul o'tkazmalarini qabul qilish va to'lash bo'yicha hisobotlarni nazorat qilish.

Elektron pul o'tkazmalari foydalanuvchilari bo'lgan operator, nazoratchi va hisobchi pochta aloqasi hududiy tashkiloti yoki pochta aloqa tarmog'i boshlig'i buyrug'i bilan tayinlanadi.

Elektron pul o'tkazmalari tizimi foydalanuvchilari Elektron pul o'tkazmalari tizimiga Elektron pul o'tkazmalari Markazi administratori tomonidan ularga tegishli vazifalar yuklatilgan holda kiritiladi.

Elektron pul o'tkazmalari tizimi foydalanuvchilari Elektron pul o'tkazmalari tizimiga kiritilayotganda ularga shaxsiy login (foydalanuvchining ismi) va parol beri-ladi. Elektron pul o'tkazmalari tizimi foydalanuvchisiga login Elektron pul o'tkazmalari Markazi tomonidan beriladi, EPO' tizimiga kirish paroli foydalanuvchi tomonidan mustaqil belgilanadi.

Har bir Elektron pul o'tkazmalari tizimi foydalanuvchisi o'ziga tegishli login va parolni saqlanishini ta'minlashlari va ularning boshqa shaxslar qo'liga tushishiga yo'l qo'ymasliklari kerak.

Elektron pul o'tkazmalari foydalanuvchisi parolni yodidan chiqargan holatda parolni aniqlash yoki almashtirish uchun zudlik bilan elektron pul o'tkazmalari Markaziga xabar berishi kerak. Agar Elektron pul o'tkazmalari foydalanuvchisi paroli boshqa shaxsga ma'lum bo'lib qolgan taqdirda elektron pul o'tkazmalari foydalanuvchisi darhol parolni almashtirishi kerak.

Elektron pul o'tkazmalari foydalanuvchisi eng kamida oyiga bir marta o'z parolini o'zgartirib turishi kerak. Bu talab EPO' Markazi tomonidan nazorat qilib boriladi.

Elektron pul o'tkazmalari foydalanuvchisi ishdan bo'shatilganda, boshqa lavozimga tayinlanganda, boshqa vazifaga o'tgan hollarda uni EPO' tizimi-dan chiqarish va yangi xolimni tizimga kiritish uchun pochta aloqa tarmog'i(Pochtamt) bu haqda EPO' Markaziga xabar berishi kerak.

Qo'ldan qo'lga» xizmati bilan elektron pul o'tkazmalarini jo'natish. EPO' «Qo'ldan qo'lga» xizmati bilan pul o'tkazmalari faqat jismoniy shaxslar manziliga O'zbekiston Respublikasi hududiga qabul qilinadi.

«Qo‘ldan qo‘lga» xizmati bilan Elektron pul o‘tkazmalari Markazi tomonidan belgilangan ro‘yxatga asosan faqat EPO‘ tizimiga ulangan shaxar va axoli maskanlariga qabul qilinadi.

«Qo‘ldan qo‘lga» Elektron pul o‘tkazmalari « pochta aloqasi korxonasi muomila zalida topshirilsin» yoki «Avvaldan xabar qilinib pochta aloqasi korxonasi muomila zalida topshirilsin» xizmati bilan qabul qilinishi kerak.

«Qo‘ldan qo‘lga» xizmati bilan jo‘natilgan pul o‘tkazmalari «Topshirilganligi, haqidagi bildirishnoma» qo‘shimcha xizmati bilan qabul qilinishi mumkin. Bu xizmat ko‘rsatilgan taqdirda mijozga pul o‘tkazmasi topshirilgach jo‘natuvchiga pochta orqali bildirishnoma (уведомление) jo‘natiladi.

Xalqaro pul o‘tkazmalari, huquqiy shaxslar tomonidan yuborilayotgan pul o‘tkazmalari, «Uyga eltib berish» xizmati bilan jo‘natilgan pul o‘tkazmalari, «Xizmatga doir» belgili pul o‘tkazmalari, huquqiy shaxslar, harbiy qismlar va abonent qutilariga yuborilayotgan pul o‘tkazmalari EPO‘ tizimi orqali jo‘natish uchun qabul qilinmaydi.

Elektron pul o‘tkazmalari tizimi bo‘yicha pul o‘tkazmalarini qabul qilish, jo‘natish, qayta ishlash va topshirish bo‘yicha pochta aloqa tar-moq (Pochtamt) larining ish tartibi.

Agar «kun boshiga solishtirish» amali bajarilmasa mazkur pochta aloqa tarmog‘i(Pochtamt) uchun EPO‘ tizimi bo‘yicha pul o‘tkazmalarini qabul qilish, jo‘natish va topshirish mumkin bo‘lmaydi.

Shuningdek nazorat qiluvchi shaxs Elektron pul o‘tkazmalari tizimiga kiritish va EPO‘ Markaziga jo‘natishga ruxsat berilganligini tekshirib ko‘rishi kerak, agar ruxsat berilmagan bo‘lsa, «EPO‘ ga kiritishga ruxsat» va « Markazga jo‘natishga ruxsat» amallarini bajarishi kerak.

Operator pul o‘tkazmalarini qabul qilish va topshirish ishlarinini nazorat qiluvchi shaxs «kun boshiga solishtirish» amalini bajargandan so‘ng boshlaydi.

Kelayotgan pul jo‘natmalarini tushishi uchun «Markazdan qabul qilish» amali elektron pul o‘tkazmalari tizimi orqali avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Ish kuni oxirida EPO‘ tizimiga ulangan xar bir pochta aloqa tarmoq (Pochtamt) da nazorat qiluvchi shaxs «Markazdan qabul qilish» va «kun oxiriga majburiy solishtirish» amalini bajarishi kerak. Nazorat qiluvchi shaxs tomonidan «kun oxiriga solishtirish» amalini bajarilgandan keyin mazkur pochta aloqa tarmog‘i(Pochtamt) uchun pul o‘tkazmalarini qabul qilish mumkin bo‘lmaydi.

Soat 20-00 dan boshlab EPO‘ Markazi administratori barcha pochta aloqasi obektlari uchun «Ish kuni yopish» amali»ni bajariladi.

Operator tomonidan Ish kuni uchun EPO‘ tizimi bo‘yicha kassa ma’lumotnomasi nazorat qiluvchi shaxs «kun oxiriga solishtirish» yoki EPO‘ Markazi administratori tomonidan «kun oxiriga majburiy solishtirish» va «Ish kuni yopish» amallari bajarilgandan so‘nggina tuziladi.

«Qo‘ldan qo‘lga» elektron pul o‘tkazmalarini qabul qilish, ishlab chiqish va jo‘natish:

«Qo‘ldan qo‘lga» xizmati bilan elektron pul o‘tkazmalarini qabul qilish pochta aloqa tarmog‘i (Pochtamt) muomila zalida ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

Elektron pul o‘tkazmalari (EPO‘) tizimi orqali pul o‘tkazmasini jo‘natish uchun jo‘natuvchi sh.114e EPO‘ blankasini to‘ldirishi kerak. Belgilangan shaklda bo‘lmagan blankalarda EPO‘ qabul qilish taqiqlanadi.

Sh.114e blankasida jo‘natuvchi:

- EPO‘ xizmati turi- «muomila zalida to‘lansin» va «avvaldan xabardor qilingan holda muomila zalida to‘lansin»
- Elektron pul o‘tkazmasining turi «yakka tartibdagi pul unatmasi» yoki «aliment».
- Mijozga pul o‘tkazmasi topshirilgach jo‘natuvchiga pochta orqali bildirishnoma (уведомление)jo‘natilishi uchun «Topshirilganligi haqidagi bildirishnoma» qo‘shimcha xizmati foydalanilgan taqdirda bu haqda belgi qo‘yish.
- Elektron pul o‘tkazmasi oluvchining to‘liq ismi sharifi, pochta manzili., telefon raqami(Agar bo‘lsa).
- O‘zining to‘liq ismi sharifi, pochta manzili., telefon raqami(Agar bo‘lsa).
- Pul o‘tkazmasining summasi raqam va so‘z bilan..

Jo‘natuvchi sh.114e blankasining belgilangan joyiga imzo qo‘yishi kerak. EPO‘ jo‘natishda jo‘natuvchi sh.114e blankasiga xabarnoma yozishi mumkin va bu xabarnoma pul o‘tkazmasi bilan birga oluvchiga topshiriladi. Xabarnoma 100 tadan ortiq bo‘lmagan xarf va belgilardan iborat bo‘lishi kerak. Bu xabarnoma uchun jo‘natuvchidan xizmat haqi olinmaydi. Sh.114E blankasida tuzatishlar, bo‘yashlar yo‘l qo‘yilmaydi.

Qaytarilgan pul o‘tkazmasining tekshirilgan sh.115e blankasiga nazorat-geraldli muxr bosiladi.

Elektron pul o‘tkazmalarining nazoratini amalga oshirish

Nazorat qiluvchi shaxs:

- operator tomonidan EPO‘ tizimida pul o‘tkazmalarini to‘g‘ri amalga oshirilishini,
- operator tomonidan pul o‘tkazmalarini to‘g‘ri to‘lanishi,
- EPO‘ tizimi orqali kelgan pul o‘tkazmalarini to‘lov muddatlariga amal qilinishi ustidan nazoratni ta‘minlaydi.

Nazoratchi tomonidan pul o‘tkazmalarini to‘g‘ri amalga oshirilishining nazoratini mazkur Qoida asosida amalga oshiradi.

EPO‘ tizimiga ulangan pochta aloqasi tarmog‘i(pochtamt)lar xisobot oyi tugagach, pul o‘tkazmalarini qabul qilish va to‘lash bo‘yicha xujjatlarni, ya‘ni sh.5 daftarlari chiptalarining nusxalari va to‘langan pul o‘tkazmalarining sh.115e blankalarini yuqori qismini (Oluvchining pasport ma‘lumotlarisiz) «Pochta qoidolari» asosida o‘rnatilgan tartibga asosan pochta pul o‘tkazmalarini nazorat qidish Markazi (SKPP) jo‘natishlari kerak. Qabul qilingan pul o‘tkazmalarining sh.114e blankalari va sh.115e blankalarining kuyi qismi(Oluvchining pasport ma‘lumotlari) pul o‘tkazmalari qabul qilingan va to‘langan pochta aloqa obektida qoladi.

Sh.281 hisoboti m‘yoriy xujjatlar talabiga asosan tuzilishi va sh.57 ro‘yxati bilan pochta pul o‘tkazmalarini nazorat qidish Markazi (SKPP) ga jo‘natilishi kerak.

Pochta pul o'tkazmalarini nazorat qidish Markazi (SKPP) EPO' nazoratini «Pochta qoidolari» asosida olib boradi.

Pochta pul o'tkazmalarini nazorat qidish Markazi (SKPP):

- EPO' tizimiga ulangan pochta aloqasi tarmoq(pochtamt)larda EPO' qabul qilinishi va to'lanishi holatini EPO' tizimida « pul o'tkazmalari monitoringi» amalini bajarish orqali kunlik nazoratni olib boadi,

- EPO' tizimi faoliyati ustidan doimiy nazoratni tashkil qiladi,

- Qabul qilingan EPO' larini EPO' Markaziga o'z vaqtida jo'natilmaslik va kelgan pul o'tkazmalarini muddatida to'lanmaslik sabablarini aniqlaydi,

- EPO' tizimida pul o'tkazmalarini qabul qilish va to'lash bo'yicha pochta aloqasi tarmoq(pochtamt)larda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni aniqlaydi.

Tekshirish natijalariga ko'ra EPO' Markazi EPO' ni qabul qilish va to'lash bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni aniqlaydi, ularni bartaraf etish bo'yicha pochta aloqasi tarmoq(pochtamt)larga ko'rsatmalar yuboradi, hamda pochta aloqasi tarmoq(pochtamt)lar tomonidan ko'rsatmani bajarilishini nazorat qiladi.

Elektron pul o'tkazmalari Markazi administratori belgilangan muddatlarda quyidagi:

- Elektron pul o'tkazmalari tizimi bo'yicha qabul qilingan pul o'tkazmalari soni,

- Elektron pul o'tkazmalari tizimi bo'yicha kelgan pul o'tkazmalari soni, shulardan to'langani soni,

- Elektron pul o'tkazmalari tizimi bo'yicha noto'g'ri qabul qilingan pul o'tkazmalari soni, shundan korrektirovka qilingan,

- Qaytarilgan pul o'tkazmalari soni, shundan jo'natuvchiga to'langani,

- Huquqni muhofaza kiluvchi organlar tomonidan to'lanishi to'xtatilgan pul o'tkazmalari soni,

- Elektron pul o'tkazmalari tizimi bo'yicha qabul qilingan va to'langan pul o'tkazmalarini turi (aliment, yakka tartibdagi) bo'yicha va ko'rsatilgan xizmat turlari («muomila zalida to'lash», «avvldan xabar berish orqali muomila zalida to'lash) bo'yicha soni,

- Qabul qilingan va to'langan pul o'tkazmalarining summasi.

«Qo'ldan qo'lga» xizmati bilan elektron pul o'tkazmalari xizmati uchun xizmat haqi to'lash

Elektron pul o'tkazmalari larining «Qo'ldan qo'lga» xizmati uchun xizmat haqi jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul bilan to'lanadi. EPO' larining «Qo'ldan qo'lga» xizmati ko'rsatilgani uchun jo'natuvchidan belgilangan tarif asosida xizmat haqi olinadi.

«Qo'ldan qo'lga» xizmatli elektron pul o'tkazmalarini jo'natish va to'lash muddatlari.

«Qo'ldan qo'lga» xizmatli elektron pul o'tkazmalarini qabul qilingan pochta obektidan EPO' Markaziga jo'natish muddati qabul qilingan vaqtdan boshlab 0.5 soatdan oshmasligi kerak.

Elektron pul o'tkazmalari tizimida («muomila zalida to'lash», «avvoldan xabar berish orqali muomila zalida to'lash») xizmati bilan qabul qilingan pul o'tkazmalarining to'lash muddati qabul qilingan vaqtdan boshlab bir oydan oshmasligi kerak.

Elektron pul o'tkazmalari xizmatidan foydalanuvchi va pochta aloqasi obektlarining huquqlari va javobgarligi

Elektron pul o'tkazmalari xizmatidan foydalanuvchilarning huquqlari va javobgarligi, uningdek bu xizmatlarning qursatuvchi pochta aloqasi obektlarining javobgarligi «Aloqa to'g'risida», «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida», «Pochta aloqasi to'g'risida» gi Qonunlar, hamda «Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalari», va »Pochta qoidasi» me'yoriy xujjatlari bilan belgilanadi.

Pochta aloqasi obektlari tabiiy ofatlar yoki amaldagi qonunchiliklarda ko'zda tutilgan boshqa biror sabab bilan, shuningdek foydalanuvchining aybi bilan (manzil noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa va hokazo) o'z oldilaridagi majburiyatlarini bajara olmasa yoki to'liq bajara olmasa foydalanuvchilar oldida moddiy javobgar bo'lmaydilar.

EPO‘ tizimiga ulangan pochta aloqasi obektlari ularning aybi bilan yo‘qotilgan yoki to‘lanmagan Elektron pul o‘tkazmalari uchun «Pochta aloqasi to‘g‘risida» gi Qonun, hamda «Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish qoidalari» me‘yoriy xujjatlari asosida foydalanuvchilar oldida moddiy javobgar bo‘ladilar.

Elektron pul o‘tkazmalari va ishlab chiqarish xujjatlarini saqlash muddati va ularni yo‘q qilish tartibi

EPO‘ tizimiga kiritilgan pul o‘tkazmalari va ular haqidagi ma’lumotlar EPO‘ tizimi ma’lumotlar bazasida elektron ko‘rinishida saqlanadi.

EPO‘ tizimida barcha amallardan o‘tkazilgan «Korrektirovka qilingan», «to‘langan», «qaytarilgan va to‘langan» pul o‘tkazmalari EPO‘ tizimi elektron arxivida saqlanishi kerak. Bu pul o‘tkazmalarining saqlanish muddati pochta pul o‘tkazmalarining saqlanish muddatlari to‘g‘risidagi me‘yoriy xujjatlar talablariga javob berishi kerak.

EPO‘ tizimida qabul qilingan va to‘langan pul o‘tkazmalarining pochta pul o‘tkazmalarini nazorat qidish Markazi (SKPP) ga jo‘natilgan xujjatlari u yerda saqlash muddatlari to‘g‘risidagi me‘yoriy xujjatlar talablariga asosan o‘rnatilgan muddatlargacha saqlaniishi kerak. EPO‘ tizimida qabul qilingan va to‘langan pul o‘tkazmalarining xujjatlari pochta aloqa obektlarida 5 yildan kam bo‘lmagan muddatgacha saqlanishi kerak.

2.2. Pochta aloqa korxonalarida elektron pul o‘tkazmalarning o‘zgarish dinamikasi

Bugungi kunga kelib “O‘zbekiston pochtasi AJ” AJ va uning xududiy filiallarida elektron pul o‘tkazmalari xizmat turining yo‘lga qo‘yilishi keng davom ettirilmoqda.

Milliy matbuot markazida “O‘zbekiston pochtasi AJ” ochiq aksiyadorlik jamiyati tomonidan matbuot anjumani tashkil etildi. Tadbir Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish masalalariga bag‘ishlandi.

Butun dunyo pochta aloqasida AKT keng qo‘llanilayotgani bu boradagi faoliyat ko‘lamini yanada kengaytirish imkonini bermoqda. Bu "O‘zbekiston

pochtasi AJ" ochiq aksiyadorlik jamiyati faoliyatida ham o'z ifodasini topayotir. Jamiyat nafaqat an'anaviy xalqaro va shaharlararo pochta aloqasi xizmatlari, balki pensiya va nafaqalar to'lash, elektron pul o'tkazmalari, kommunal to'lovlarni qabul qilish, sug'urta polislarini sotish bilan bog'liq boshqa xizmatlarni ham ko'rsatmoqda.

“O‘zbekiston pochta AJ” ochiq aksiyadorlik jamiyati bosh direktorining birinchi o‘rinbosari X.Tojiboyeva mamlakatimizda turli sohalarda AKTni keng joriy etish va rivojlantirishga doir qonunchilik hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi o'zining yuksak samaralarini berayotganini ta'kidladi.

2012-yilning mart oyida aralash pul o'tkazmalari tizimi joriy etildi. Bu xizmatni taqdim etishda pochta aloqasi bo'limida mijozdan qabul qilingan pul o'tkazmasi an'anaviy pochta yordamida shahar(tuman) pochta aloqasi uzelliga, keyin esa avtomatlashtirilgan elektron pul o'tkazmalari tizimi orqali zarur manzilga yetkazib beriladi. Shunday qilib, pul o'tkazmasini uni oluvchiga yetkazib berish va to'lash tezlashtirilmoqda. 2013-yilning birinchi choragida avtomatlashtirilgan elektron pul o'tkazmalari tizimi xizmatlaridan olingan daromad 1 milliard so'mdan oshdi.

Mamlakatimiz fuqarolarini pensiya va nafaqalar bilan o'z vaqtida ta'minlash masalasi ham samarali hal etilmoqda. Axborotni tez to'plash, pensiya va nafaqalarni to'lashni markazlashtirilgan holda hisobga olish va nazorat qilish tizimini joriy etish maqsadida “O‘zbekiston pochta AJ” ochiq aksiyadorlik

Jamiyatining pochta aloqasi ob'ektlari tomonidan pensiya va nafaqalarni to'lashning markazlashtirilgan hisobga olish tizimini ishlab chiqish va joriy etish ishlari amalga oshirilib, uni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining avtomatlashtirilgan “Pensiya” tizimiga muvofiqlashtirish masalasi hal etildi. Ushbu tizimga 683 pochta aloqasi ob'ekti bosqichma-bosqich ulandi. Ayni paytda bu boradagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bugun hududiy filiallardagi o'n besh pul almashtirish punkti va shahar hamda tuman pochta aloqa uzellarining 187 saralash

uchastkasi ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmalarini monitoring qilish bo'yicha avtomatlashtirilgan tizimga ulangan. Bu real vaqt rejimida pochta jo'natmalariga oid ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

2014 yil 5 dekabr xolatiga EPO` tizimiga ulangan tarmoqlar soni.

№	Filial nomlari	Jami ulangan ob'ektlar	PAT larni soni	Aloka bo'limlarini soni
1	Toshkent pochtaamt	155	5	150
2	Toshkent filiali	185	18	167
3	Sirdaryo filiali	65	10	55
4	Jizzax filiali	71	13	58
5	Samarqand filiali	199	16	183
6	Farg'ona filiali	190	19	171
7	Namangan filiali	146	12	134
8	Andijon filiali	101	16	85
9	Qashqadaryo filiali	101	14	87
10	Surxandaryo filiali	104	14	90
11	Buxoro filiali	136	12	124
12	Navoiy filiali	90	10	80
13	Xorazm filiali	80	12	68
14	Qoraqalpog' filiali	99	15	84
	Jami:	1722	186	1536

1-Jadval: EPO` tizimiga ulangan tarmoqlar soni

III. POCHTA XIZMATLARI SOHASINI MODERINIZATSIYA QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULARI

3.1. O'zbekiston pochta AJ va xalqaro xizmatlari sohasini iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'lar.

Xorijiy davlatlarni pochta xizmatlarini modernizatsiya qilishdan ondaza olgan holda mamlakatimizdagi pochta aloqa tizimini tubdan modernizatsiya qilish va yangi ishlanmalarni ishlab chiqish xorijiy davlatlardan pochta xizmatini rivojlantirish va uning ish faoliyatini takomillashtirish maqsadida xorijdan soxaga investitsiyalarni olib kelish va uni amalda qo'llash.

Rossiya va boshqa ilg'or mamlakatlar tajribasidan foydalanib shuningdek O'zbekistonda yuzaga kelgan davlat boshqaruvi xolatini bu borada amaldagi respublika qonunlari hukumat qarorlarini hisobga olgan holda pochta xizmati sohasini modernizatsiya qilishni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'nalishlarini ta'riflashga urinib ko'ramiz.

- pochta xizmatini modernizatsiya qilishini kuchaytirish va samaradorligini oshirish va iqtisodiyotni rivojlantirish.

- pochta xizmati sohasida ichki va tashqi davlatlar kompaniyalarga raqobatbardosh bo'lgan xizmat turlarini ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun shart sharoit yaratish va soxada faoliyat olib borayotgan xodimlar orasida raqobat muhitini yuzaga keltirish va sohadagi monopoliyaga qarshi qarorlar qabul qilish.

- pochta xizmati sohasini modernizatsiya qilish orqali pochta aloqasi xizmat samaradorligini ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish.

Bugungi kunga kelib pochta xizmati sohasida ko'plab yangi xizmat turlari kirib kelmoqda va mijozlarga taqdim etilmoqda. Xususan buyurtmali pochta jo'natmasini manzilga eltib berish orqali pochta xizmati sohasida sezilarli darajada daromadlarni oshishiga xizmat qilmoqda. Bu xizmat turi bilan esa O'zbekiston pochta AJAJ ning xizmatlari rivoshlanishiga o'z xissasini qo'shmoqda. Agarda biz O'zbekiston pochta AJAJ da ko'rsatilayotgan xizmat turlarini taxlil etadigan bo'lsak

Xozirgi kunda kelib pochta xizmati sohasida logistika tizimini modernizatsiyalashda Estoniya pochta ham katta yutuqlarga erishgan. Ushbu

modernizatsiyalash doirasida 2006 yilning noyabrida Tallin shahridagi markaziy saralash markazi Gollandiyaning Vander Lande Indastris posilkalarni saralash bo'yicha liniya bilan jihozlandi. Bu liniya soatiga 3600 ta posilkani saralaydi, ularga ishlov berish tezligi soatiga 8 ming posilkani saralashgacha oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, liniya avtomatik ravishda jo'natmalar og'irligini aniqlaydi, yo'nalishlar bo'yicha o'lchashlar va saralashni bajaradi.

Litva pochtasi ham aeroport rayonida joylashgan eski saralash markazi bazasida yanada kengroq ishlab chiqarish xonalari va zamonaviy uskunaga ega yangi saralash markazini qurdi. Bugungi kunda ushbu saralash markazi barcha kiruvchi va chiquvchi xalqaro hamda magistral pochta jo'natmalarining saralanishini amalga oshiradi.

Polshada saralash mashinalari bilan jihozlangan beshta asosiy uzellar modernizatsiya qilindi. Ular soatiga 40 mingta jo'natmalar va xatalarni o'tkazish qobiliyati bilan ishlaydi hamda beshta shahar: Varshava, Poznanь, Krakov, Lodzь va Katovitsada joylashgan.

Moliviy boshqaruv tizimlariga buxgalteriya hisobi, moliyaviy va strategik hisobotlarni yig'ish va qayta ishlash, biznes-rejalarni shakllantirish, korxona byudjeti bajarilishini nazorat qilish uchun mo'ljallangan avtomatlashtirilgan Axborot tizimlari kiradi.

Shundan kelib chiqqan xolda O'zbekiston pochtasi AJAJ da Estoniya pochtasi, Litva pochtasi Polsha, pochtasidan andoza olgan xolda pochta xizmati soxasini yanada rivojlantirish orqali esa xalqaro saralash markazlarini barcha kiruvchi va chiquvchi xalqaro hamda magistral pochta jo'natmalarining saralanishini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

“O'zbekiston pochtasi AJ” ochiq aksiyadorlik jamiyati xalqaro elektron pul o'tkazmalari bozori yo'lga qo'yildi 2009 -yilning 1 - fevral kundan “O'zbekis ton pochtasi” ochiq aksiyadorlik jamiyati va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida electron pul o'tkazmalari yo'lga qo'yildi. Bunday elek tron aylanmalar Butunjahon pochta uyushmasining Xalqaro moliya tizimi orqa li amalga oshiriladi. Endilikda Rossiyaga pul o'tkazmalari ikki kun ichida, sezilarli dara jada tezroq o'tadi. 2008-yil 13-

avgustdagi “Почта России” FGUP (Rossiya pochta) va “O‘zbekiston pochta AJ” ochiq aksiyadorlik jamiyati o‘rtasida elektron pul o‘tkazmalari to‘g‘risida”gi bitimga asosan bunday imkoniyat yaratildi.

Endilikda O‘zbekiston Respublikasi hududida pulni milliy valutada yuborish va qabul qilib olish mumkin. Bir elektron o‘tkaz maning eng ko‘p qiymati 90 ming Rossiya rubli yoki ularning ekvivalenti (3,5 million so‘m atrofida) o‘zbek so‘midan oshmasligi kerak. Bitta qabul qilib oluvchi manzilga yuborilayotgan elektron o‘tkazmalarning soni cheklanmagan. Pul o‘tkazmalari Rossiya Federatsiyasi da Rossiya rublida, O‘zbekiston Respublikasi da esa milliy valutamizda beriladi. O‘zbekiston Respublikasidan yo‘nal tirilgan elektron pul o‘tkazmasi miqdori milliy valutadan Rossiya rubliga qayta hisoblash jarayoni “O‘zbekiston pochta AJ” ochiq aksiyadorlik jamiyatining Pul o‘tkazmalari nazorati markazida amalga oshiriladi. Pul o‘tkazmalari nazorati markazida o‘tkazmani qayta ishlash kunida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Rossiya rublini sotish kursi bo‘yicha belgilangan miqdorda Butunjahon pochta uyushmasining Xalqaro moliyaviy tizimiga ma’lumot uzatish yo‘li orqali yetkazib beriladi. Bunday xizmat turi “O‘zbekiston pochta AJ” ochiq aksiyadorlik jamiyati pochta aloqasining barcha tuman bo‘linmalarida yo‘lga qo‘yilgan.

“O‘zbekiston pochta AJ” ochiq aksiyadorlik jamiyati elektron pul o‘tkazmalari aylan masini Ukraina bilan ham amalga oshiradi.

Shuningdek, Ozarbayjon, Armaniston, Belorussiya, Qozog‘iston va Polsha bilan ham shartnomalar imzolangan. Bu mamlakatlar bilan elektron pul o‘tkazmalarini o‘tkazish bo‘yicha tajriba sinovlari o‘tkazilmoqda.

Yuqoridagi taxlil qilingan malumotlaridan kelib chiqan xolda O‘zbekiston pochta AJda elektron pul o‘tkazmalarini rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflar kiritiladi:

- 1) Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasida online ochiq bozorni tashkil qilish kerak va yuklarni yetqizib berishni Pochta zimasi ga yuklash kerak bo‘ladi.


Masalan : Kimdur Rossiya bozoridan nimadur sotib oldi va olingan tavarni pulini elektron pul o‘tkazish yoli bilan davlat kursida so‘mda to‘laydi va

tavarni O'zbekiston pochta AJ orqali qabul qilib oladi.

Bu moliyavi juda katta foyda va qulayliklarni olib keladi.

Buning uchun qo'yiladigan talablar :

- a) Chet davlatlarda O'zbek kurierlik xizmatlarini tashkil qilish kerak bo'ladi.
- b) Bank va O'zbekiston pochta AJ o'rtasidagi pul aylanishni tartibga solish kerak bo'ladi.
- c) Ularda qo'shimcha servislarni tashkil qilish kerak bo'ladi xususan uydan yuklarni qo'shimcha to'lov evaziga olib keliz va jo'natish, harxil aksiyalar olib qolinadigan pul miqdorlarini tarifkatsiyalash kerak bo'ladi bunday xizmatlar uchun pulni qo'l telefonidan yoki computer orqali amalga oshirish foydalanuvchilarga qo'shimcha qulayliklarni yaratib beradi.
- d) Yaratilgan qulayliklar esa moliyaviy rivojlanishga olib keladi.
- e) Buning uchun serverlar va dasturiy mahsulotlar yaratish talab qilinadi.



3.1 – rasim : Umumiy ishlash prinsipi.

3.2. O'zbekistonda pochta xizmatlari soxasida iqtisodiy samaradorligini Respublika ichida oshirish yo'lar.

Pochta xizmatlari bozori rivojlanishining negativ tendentsiyalari bilan har bir mamlakat pochta xizmatlari ham to'qnash keldilar. Bu sharoitlarda pochta xizmatlari rivojlanishning yangi yo'llarini va aholiga universal xizmat ko'rsatish yechimlarini topishga to'g'ri keldi. Ko'p pochta ma'muriyatlari yuqori texnologiyalar va jarayonlarni avtomatlashtirish, xarajatlarni alohida hisobga olish asosida tarif siyosatini takomillashtirish, investitsiyalarning muvofiq darajasi, normativ bazani takomillashtirishga asosiy e'tiborni qaratdilar. Ammo turli mamlakatlarda bu vazifalarni hal etish uchun pochta xizmatlarining o'z rivojlanish darajasi mavjud edi. Yangi bozor sharoitlariga moslashish uchun pochta aloqasi operatorlari quyidagi vazifalarni hal etishlariga to'g'ri keldi:

- sifatini oshirish va tariflarni kamaytirish hisobiga an'anaviy pochta aloqasi xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish;
- daromadlilikni oshirish va an'anaviy rentabel bo'lmagan pochta xizmatlari rivojlanishini subsidiyalash uchun yangi muqobil xizmatlarni rivojlantirish.

Xorijiy mamlakatlarda pochta aloqa tizimini rivojlantirishning ahamiyati va istiqbollari.

Bugungi kunda pochta xizmatlarining dunyo bozorida o'rni juda o'zgardi. Pochta jo'natmalarining jo'natilishi bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy pochta aloqasi xizmatlari hajmining kamayishi va pochta xizmatlari bozori kon'yunkturasining o'zgarishi bunga misol bo'ladi. Umumjahon pochta ittifoqi fikriga ko'ra, turli segmentlarda pochta ulushining kamayishi davom etadi. Bundan davriy nashrlar va reklama materiallarning yetkazib berilishi bundan mustasno. Binobarin shunday ekan biz eng avvalo pochta xizmatida kurerlik pochta jo'natmalarini turlarini ko'paytirish kerak.

Keyingi yillarda pochta xizmatlari bozorining o'zgarishiga va pochta rivojlanishining cheklanishiga ta'sir ko'rsatgan bir necha omillar mavjud. Ko'pgina ekspertlarning fikricha, an'anaviy pochta aloqasi xizmatlariga bo'lgan talabning pasayishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar bu texnologik omillar, ya'ni

Internet, elektron pochta rivojlanishi, global telekommunikatsiyalar bozorining rivojlanishi, yangi kommunikatsiya vositalarining paydo bo'lishi hisoblanadi.

Birinchi masalani hal etishda ko'pgina mamlakatlar zamonaviy texnik vositalar va texnologiyalarni joriy etish, saralash uzellarini rekonstruktsiya va modernizatsiyalash hamda pochta aloqasi bo'limlarini avtomatlashtirish hisobiga pochta tarmog'ini mexanizatsiyalash va modernizatsiyalashga yo'naltirilgan xatti-harakatlar va choralar ko'rdilar. Ko'p mamlakatlarda ushbu xatti-harakatlar va choralar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlagan yoki qo'llab-quvvatlanmagan holda avval qabul qilingan mamlakat pochta tarmog'ini modernizatsiyalash dasturlari doirasida amalga oshirildi. Bunday dasturlarda quyidagilar ko'zda tutilgan edi:

- Pochta jo'natmalarini tashish uchun transport parkini komplektlash va to'ldirish;
- zamonaviy saralash liniyalaridan foydalangan holda saralashni mexanizatsiyalash;
- moddiy-texnik bazani modernizatsiyalash;
- avtomatlashtirilgan Axborot tizimlarini yaratish;
- pochta aloqasi bo'limlarini avtomatlashtirish.

SHunga ko'ra, masalan, «Kazpochta» AJda keyingi yillarda pochta rivojlantirishga qaratilgan bir nechta davlat dasturlari qabul qilindi: 2005-2010 yillar uchun Qozog'iston Respublikasi pochta-jamg'arma tizimini rivojlantirish dasturi; 2007-2011 yillar uchun «Kazpochta» AJni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari; 2007-2011 yillar uchun infratuzilmani rivojlantirish dasturi.

Pochta xizmatlarining sifat darajasini oshirish maqsadida ko'p mamlakatlar saralash markazlari va uzellarini mexanizatsiyalash va texnik jihozlash hisobiga logistika tizimini takomillashtirish, shuningdek tashish hamda yetkazib berish jarayonlarini rejalashtirish va optimallashtirish tizimlarini joriy qilish yo'lidan bordilar.

Masalan, 2009 yil 12 iyunda «Kazpochta» AJ Siemens kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan noyob xat saralash mashinasi bilan jihozlangan «Yug» (Janub) Axborot-logistika markazini ishga tushirdi, uning analoglari Rossiyada ham,

boshqa MDH mamlakatlarida ham yo'q. Mashina ichiga o'rnatilgan kiril alifbosidagi hamda lotin alifbosidagi matnni o'qigan holda manzillarni o'qish, bilish tizimiga ega, u xatlarni videokodlashni amalga oshiradi va saralangan yozma xat-xabarlar miqdorining statistikasini yuritish imkonini beradi.

Pochta jo'natmalariga ishlov berish va uni transportda tashish bilan bog'liq bo'lgan texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish asosiy vositalariga quyidagilar kiradi:

1) pochtaga ishlov beruvchi mashinalar – xat saralash mashinalari va posilkalarni saralash uchun qurilmalar, tamg'alash, o'rovlash va qoplarni tikish mashinalari;

2) ko'tarish-transport vositalari – ko'targichlar, konveyerlar, statsionar transportyorlar, otish va omborga taxlash uchun mexanizmlar;

3) transportda tashish vositalari – konteynerlar va transport vositalari.

Tamg'a tushirish mashinalari. Yozma xat-xabarlarni tamg'alash uchun yuzasi bilan taxlash – alohida yoki pochta jo'natmalarini saralash bo'yicha avtomatlashtirilgan liniyalar tarkibidagi tamg'a tushirish mashinalaridan foydalaniladi.

Tamg'alash mashinalari pochta varaqchalari va konvertlarga sana izi, jo'natish joyini tushirish va pochta markasini hisobdan chiqarish uchun mo'ljallangan.

Pochta yig'imlarini to'lashning muqobil shakllari, pochta markalari, frankirlash mashinalari va elektron markalari

Markalarni chiqaradigan avtomatlar. Pochtada avtomatlashtirishning keng joriy etilishi pochta markalarining sotilishiga yangi yondashuvni taklif etadi. Hozirgi vaqtda pochta xizmatlari tomonidan pochta bo'limlarida tayyor pochta markalari va butun buyumlarni sotish uchun avtomatlar samarali qo'llaniladi. Bunday avtomatlardan ko'p mamlkatlarda foydalaniladi, ammo mijoz har doim ham unga kerakli bo'lgan nominalni ololmasligi mumkin.

Keyingi vaqtda xaridorga kerakli miqdordagi markalarni bosib chiqaradigan avtomatlarning yangi tiplari (marka chiqaradigan avtomatlar)ning yangi tiplari ishlab chiqildi va tobora keng qo'llanilmoqda. Nemis tilida bunday avtomatlar

Automatenmarken, ingliz tilida –Postage Labels, frantsuz tilida –Timbersde Distibuteus degan nom olgan.

Bugungi kunda bosib chiqaruvchi avtomatlar o'nlab mamlakatlarda ishlaydi. Ayniqsa SHveytsariya, Germaniya, Frantsiya, Avstraliya, Belgiya, Finlyandiya va bir qator boshqa mamlakatlarda ulardan faol foydalanilmoqda.

Avtomatga yelim qatlamli – pochta ma'muriyatining talabiga ko'ra, tayyor fon yoki ma'lum matnga ega rasmlari maxsus qog'oz ruloni joylanadi. Mijoz tangalarni solganidan keyin, ular hisoblanadi va tabloda summa paydo bo'ladi. Agar uning miqdori pochta jo'natmasiga to'lash uchun yetarli bo'lsa, xaridor muayyan tugmani bosadi va markani tayyorlash jarayoni boshlanadi. Tayyorlangan nusxada yozuvli va nominali ko'rsatilgan rasm izi bajariladi. Agar tayyorlanayotgan markada rasm va matn bo'lsa, faqat nominalning raqami qo'yiladi.

Frankirlash mashinalari.Pochta hajmining o'sishiga bog'liq holda markalarga qo'lda tamg'a tushirish o'rniga frankirlash mashinalari qo'llanila boshladi. Frankirlash mashinalari konvertga pochta jo'natmasining qiymatini, teskari manzilini va sanasini ko'rsatgan holda pochta to'lovining davlat belgisini tushirish uchun mo'ljallangan. Bu xat-xabarlarni markalarni yopishtirmasdan jo'natish imkonini beradi, pochtaga ishlov berilishi va uning aylanishini tezlashtiradi.

Elektron markalar.Pochta korxonalarida qo'llanilishi mumkin bo'lganyana bitta yangi texnologiya – bu elektron (raqamli) pochta markasi. Elektron marka (boshqa nomlari «kibermarka», «intellektual yoki shaxsiylashtirilgan marka») oddiy pochta markalari o'rniga pochta yig'implari to'lovini tasdiqlash uchun muqobil yechim hisoblanadi. SHuningdek elektron marka o'zida jo'natuvchi va adresat, xizmatning qiymati to'g'risidagi Axborotni, pochta jo'natmasining yo'lini va yetkazib berilishi faktini kuzatish mumkin bo'lgan jo'natamlarni qabul qilish va yetkazib berish punktlari to'g'risidagi ma'lumotlarni birlashtirgan holda pochta jo'natmalarini mualliflashtirish imkonini beradi. Butun maxsus va xizmatga oid Axborot bunday markaga, aynan markaning shtrixkodiga «tiqishtiriladi».

«Elektron marka» xizmati, odatda, Internet tarmog'idagi maxsus saytg murojaat qilib, Internet orqali buyurtiriladi. Jo'natuvchi tomonidan saytg

oluvchining yetkazib berish manzili, jo'natmaning turi (xat, banderol, posilka) to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi, zarur bo'lganda og'irligi ham ko'rsatiladi. Xizmat uchun to'lov kredit kartasi yoki elektron to'lov tizimi orqali amalga oshiriladi. To'lovdan keyin jo'natuvchi o'z printerida kvitantsiya va jo'natish bo'yicha xizmat uchun to'lov amalga oshirilganligini tasdiqlaydigan shtrixkodlanganiz tushirilgan manzil yorlig'ini bosib chiqaradi. Manzil yorlig'ini kvitantsiyadan kesib oladi va uni o'zi pochtaga olib borishi mumkin bo'lgan yoki kur'yerlar olib ketishi mumkin bo'lgan pochta jo'natmasiga yopishtiradi. SHtrixkodli manzil yorlig'i elektron marka hisoblanadi. Pochta jo'natmasi yetkazib berilganidan keyin jo'natuvchi pochta bo'yicha, e-mail bo'yicha yoki «elektron marka» xizmati buyurtirilgan saytda xabarnomani olishi mumkin.

Keyingi yillarda pochta logistikasida simsiz va yo'ldosh aloqa texnologiyalari samarali ravishda quyidagi maqsadlarda qo'llanilmoqda:

- transport vositalari va hatto kur'yerlar harakatlanish marshrutlarini kuzatish;
- almashinuv punktlariga pochta kelib tushishini kuzatish;
- konteynerlar va yuklar ko'chishini nazorat qilish va h.k.

Tashish tezkorligini oshirish maqsadida «Belpochta» korxonasida avtomobillar harakatlanishini kuzatadigan avtotransport monitoringi tizimi joriy qilingan. Tizim GSM tarmog'i bo'yicha o'zaro ishlash protokollari asosida amalga oshirilgan va avtomobillarning nazorat nuqtalaridan o'tishini va harakatlanish marshrutidan og'ishini kuzatadi. Tizimning joriy etilishi marshrutdagi nostandart vaziyatlar holatida tez qarorlar qabul qilish, shuningdek pochtaning almashinuv punktlariga kelib tushish muddatlarini nazorat qilish imkonini berdi.

«Belpochta» korxonasida, shuningdek pochta qutilaridan yozma xat-xabarlar olinishini nazorat qilish tizimini qo'llashning ijobiy natijasi olindi. Xatlar olinishini nazorat qilish tizimi pochta qutilari jihozlanadigan maxsus mikrochiplardan foydalanishga asoslangan. Mikrochiplardan olinadigan Axborot sotali aloqa tarmog'i bo'ylab doimiy nazorat va Axborotni qayta ishlash markaziga uzatiladi. Mikrochiplardan olinadigan Axborot asosida xat-xabarlarni olish vaqti aniq

kuzatiladi. Ayni paytda bunday tizim barcha viloyat va yirik tuman markazlarida o'rnatilgan.

Sloveniya pochta tomonidan simsiz texnologiyalardan foydalanishga misol bo'lib, avtomobil parkini elektron kuzatishni tashkil qilish hisoblanadi. Transport vositalari ularning ahvoli va ko'chishining nazoratini ta'minlash imkonini beradigan kommunikatsion uskuna bilan jihozlanadi. Nazoratni amalga oshirish uchun mobil operator tarmog'idan foydalaniladi, bu tarmoq bo'yicha Axborot avtomobil parkini nazorat qilish dispetcherlik markaziga uzatiladi.

Strixkoddan foydalangan holda pochta jo'natmalarini kuzatish va yetkazib berilishini kuzatish tizimi. Pochta xizmatlarida qo'llaniladigan, ma'lumotlarni yig'ishning eng keng tarqalgan texnologiyalaridan biri shtrixkodlash hisoblanadi. SHtrixkodlash – bu kompyuterga kiritilishi zarur bo'lgan va texnologik jarayon qo'yilgan vazifalar talab qiladigan darajada foydalanish kerak bo'lgan Axborotnidarhol yig'ish usuli.

Shtrixkod pochta jo'natmalariga tushiriladi, u bir tomondan jo'natma to'g'risidagi Axborotga ega bo'lib, boshqa tomondan uni mualliflashtirish imkonini beradi.

Dunyoning pochta xizmatlarida shtrixkoddan ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmalari o'tishini kuzatish maqsadida foydalaniladi. SHtrixkoddan foydalangan holda ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmalari o'tishini nazorat qilish tizimlari pochta aloqasida jo'natishga qabul qilish vaqtidan boshlab adresatga topshirilgunga qadar barcha pochta jo'natmalari o'tishini kuzatish imkonini beradi. Ushbu tizim asosida har bir pochta jo'natmasining noyob identifikatsiyalash yotadi, ya'ni har bir pochta jo'natmasiga shtrixli kod ko'rinishida noyob raqam tushiriladi. 2007 yilda Estoniya pochta logistika Axborot tizimi (EPLIS)ni joriy qildi, u shtrixkodli Axborot asosida ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmalarini qabul qilish vaqtidan boshlab ular berilgunga qadar o'tishini kuzatish imkonini beradi.

Pochta jo'natmalarini identifikatsiyalashning kontaktsiz radiochastotali texnologiyalarini qo'llash. Hozirgi vaqtda xalqaro amaliyotda pochta jo'natmalarini

kuzatish va nazorat qilish samarali tizimlarini yaratishda shtrixkodlar o'rniga RFID (RadioFrequencyIdentification) radiochastotali identifikatsiyalash texnologiyalari qo'llanila boshladi.

RFID texnologiyasining mohiyati shundan iboratki, tizim pochta jo'natmasida joylashtiriladigan radiochastotali datchik (belgi) va tarmoqqa ulangan o'qiydigan qurilmadan iborat. RFID datchigi yoki belgisi elektron chip va antennadan iborat. Pochta jo'natmasining indekatsion axboroti datchikning elektron chipida saqlanadi, u o'chirilishi va qaytadan yozilishi mumkin. O'qiydigan qurilmadan nurlanuvchi antenna, qabul qiluvchi antenna va axborotni qayta ishlaydigan qurilmadan iborat.

Xalqaro pochta jo'natmalarini jo'natish va yetkazib berish sifatining monitoringi tizimi. Hozirgi vaqtda pochta xizmatlari o'rtasida pochta jo'natmalari pochta tarmog'iga qabul qilingan vaqtdan boshlab boshqa mamlakatdagi adresatga yetkazib berilgunga qadar xalqaro pochta jo'natmalariga ishlov berish va yetkazib berish sifati monitoringining xalqaro tizimlari tashkil etilmoqda.

Pensiyalar to'lovini nazorat qilish. Pensiya va nafaqalarni yetkazib berish bo'yicha xizmatlarni saqlash hamda pensiya oluvchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida Rossiya pochtasi Rossiyaning Pensiya jamg'armasi bilan birgalikda «Elektron hujjat aylanishi tizimini qo'llagan holda pensiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni to'lash va yetkazib berishni tashkil qilish» loyihasini ishlab chiqdi va joriy qildi. Pensiya jamg'armasining hududiy organlari va pochta aloqasining tashkilotlari o'rtasida pensiya to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan almashinuv (elektron hujjat aylanishi) elektron raqamli imzodan foydalangan holda himoyalangan aloqa kanallari bo'yicha amalga oshiriladi.

Davriy nashrlarga obuna bo'lish va ularni yetkazib berish. Obuna hajmlarini va, muvofiq ravishda, davriy nashrlarni yetkazib berishni oshirish maqsadida ayrim mamlakatlarning pochta xizmatlari davriy nashrlarga obuna bo'lish va ularni yetkazib berish tizimini rivojlantirdilar.

Tahririy obunani shakllantirish va kengaytirish uchun pochta xizmatlari marketing tadbirlarining muayyan kompleksini o'tkazadilar. Ularga murojaat-

xatlarni jo'natish, sayt orqali obunani qabul qilish, bank orqali obunaga to'lash, o'z call-markazi kuchlari bilan sotish, ko'rgazmalardagi ish va h.k. Tahririy obuna bilan ishlashdagi asosiy belgilovchi paytlar bu to'lovlarni qabul qilish, buyurtmani aktivlashtirish va yetkazib berishni tashkil qilish.

Masalan, tahririy obuna uchun turli yo'llar bilan to'lovni amalga oshirish mumkin, bank orqali to'lovdan boshlab, darhol to'lash terminallari va elektron to'lov tizimidagi to'lovlargacha. Bu hali hammasi emas, sababi tez rivojlanayotgan Axborot texnologiyalari ushbu yo'nalishda yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda.

Yangi bozor sharoitlariga va mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga moslashish maqsadida mamlakatda an'anaviy xizmatlarni ko'rsatish darajasi oshirilishi kerak, shu jumladan pochta jo'natmalarining o'tish muddatlarini qisqartirish hisobiga, daromadlilik darajasini ko'tarish uchun noan'anaviy xizmatlarning yangi turlarini rivojlantirish, samaradorlikni oshirish va mehnat xarajatlarini kamaytirish maqsadida pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish texnologik jarayonlarini takomillashtirish zarur.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish xalqaro aloqalarning rivojlanishi o'z navbatida pochta aloqalarining rivojlanishi yo'nalishini chuqur tahlil etishni taqazo etadi.

Iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish jarayonida hamda ishlab chiqarish kuchlarning yangi darajaga ko'tarilishi va yangi ishlab chiqarish munosabatlari paydo bo'lishi xalq xo'jaligining barcha sohalari oldida ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-texnik xarakterga ega muammolar paydo bo'ldi.

Ushbu muammolar aloqa sohasining tarkibiy qismi hamda xalq xo'jaligining ijtimoiy va ishlab chiqarish qismi bo'lgan pochta sohasini ham chetlab o'tmadi. Jo'natmalarni jo'natish funksiyasini bajargan holda pochta aloqasi bevosita jamiyatning va aholining yashash darajasi va istiqbollarga ta'sir o'tkazadi va bozor infratuzilmasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun zaruriy omillardan biri hisoblanadi.

Pochta aloqasining spetsifikasi iste'mol va ishlab chiqarish jarayonlarini uzluksizligida, mahsulotning noashyoviyligida, ma'lumotni uzatish, yetkazib

berish jarayonida bir necha pochta aloqasi korxonalari qatnashishida hamda faoliyatni ijtimoiy yo'naltirilganligida o'z ifodasini topadi.

Tez o'zgaruvchan bozor sharoitida pochta aloqasining an'anaviy xizmatlariga bo'lgan talab keskin kamaydi va natijada ba'zi xizmat turlari norentabel bo'lib qoldi. Pochta xizmatlariga bo'lgan past talab hamda ishlab chiqarish fondlarining eskirganligi pochta aloqasi korxonalarini hisobot davrini zarar bilan chiqishiga olib keldi.

Bu tendentsiya barcha MDH davlatlarida kuzatilmoqda. Yuzaga kelgan vaziyatdan chiqish uchun pochta korxonalarini hamda aloqa bo'limlarini zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, yangi texnika va texnologiyalarni kiritish. Har bir rahbarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

XX asr oxirida Axborot texnologiyalarining keskin o'zgarishi natijasida ishlab chiqarish jarayonlariga kompyuter texnologiyalari keng jalb etila boshlandi.

Bu xususiyatlar iste'molchilarni tez va yetarli darajada jalb etishga, qilingan xarajatlarni qoplashga va raqobat bozorida barqaror o'rinini egallashga imkon beradi. Demak, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish pochta korxonalariga ishlab chiqarish fondlarini yangilashga, yangi rentabellik darajasini texnologiyalar va xizmat turlarini kiritishga va eng asosisi oshirishga turtki bo'ladi.

Hozirgi sharoitda Axborot texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. SHuning uchun zamonaviy Axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni masofadan turib boshqarish natijasida turli sohalarda sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Ma'lumki, aloqa sohasining halq xo'jaligidagi o'rni beqiyosdir. Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, raqobat bozorida mustahkam o'rin egallash uchun yangi zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Butun dunyoda Axborot texnologiyalari jadal rivojlanmoqda. Bu jarayondan bizning mustaqil respublikamiz ham ortda qolmasligi zarur. Buning uchun yetarli shart-sharoitlar va resurslar mavjud.

Umumjahon pochta ittifoqining 25-kongressida barcha a'zo-mamlakatlar uchun qiziqish paydo qilgan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, pochta tarmog'ini modernizatsiyalash va elektron xizmatlarini

rivojlantirish sohasidagi pochta strategiyasi ishlab chiqildi. Ushbu strategiya doirasida 2013-2016 yillardagi davr uchun dastur qabul qilindi, unda quyidagi asosiy maqsadlar belgilandi:

- pochta tarmoqlarining rivojlanishini tezlashtirish maqsadida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni rag'batlantirish;
- Axborot jamiyatidagi pochta sektorining vazifasini tushuntirish;
- pochta mahsulotlari va xizmatlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash;
- texnologik o'zgarishlarga moslashgan yuqori sifatli qimmat bo'lmagan, texnik ilg'or, universal pochta xizmati taqdim etilishini rag'batlantirish;
- yangi texnologiyalardan foydalanish vositasida bozor o'sishini rag'batlantirish;
- universal pochta xizmatidan foydalanish osonlashtirish.

Dasturiy maqsadlarning har biriga nisbatan faoliyat ko'rsatkichlari belgilandi, ulardan a'zo-mamlakatlar tomonidan asosiy maqsadlar bajarilishi darajasini baholash uchun foydalaniladi.

Pochta aloqasida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga ko'mak berish bo'yicha dastur maqsadlarini amalga oshirish, birinchi navbatda, quyidagilarga qaratilishi kerak:

1) yangi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari farqlanadigan tezlik va qulaylik hisobiga pochta aloqasining an'anaviy xizmatlari sifatini oshirishga yordam berish. Ikkinchi tomondan, pochta jo'natmalari o'tishini kuzatish tizimlarining, shuningdek Umumjahon pochta ittifoqi ko'zda tutgan xizmatlar sifati monitoringi tizimlarining tuzilishi Axborot infratuzilmasi mavjud bo'lmasa va Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llamasdan mumkin emas;

2) iqtisodiy rivojlanish va pochta sektorining iqtisodiy moslashishi maqsadida yangi muqobil elektron xizmatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

Pochta aloqasida elektron xizmatlarini rivojlantirish maqsadida iste'molchilarga samarali, ishonchli va rentabel elektron mahsulotlar hamda xizmatlarini taqdim etishda pochta xizmatlariga yordam ko'rsatish uchun Umumjahon pochta ittifoqining «Elektron mahsulotlar va xizmatlar» guruhi tomonidan strategiya ishlab chiqilgan.

SHunday ekan bugungi kunda pochta xizmatida yangi texnologiyalardan foydalanish, pochta xizmatini ishini osonlashtiradi. Pochta aloqasida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha dastur maqsadlarini amalga oshiradi.

Hozirgi kunda barcha soxalarda internet shiddat bilan kirib kelayotgan ushbu kunda O'zbekiston pochta AJAJ qarashli bo'lgan barcha filiallari va tuman pochta tarmoqlarining o'z web saytlarini ochish va mijozlar bilan ma'lumotlar uzatish tezligini oshirish. SHunga ko'ra mijozlarni qiziqtirgan savollariga javob berish jikoyat va takliflari bilan tanishib chiqib javob berish qolaversa tuman tarmog'i bo'yicha barcha ma'lumotlarni olish imkonini yaratib berish shular jumlasidan xisoblanadi.

VI. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI. EKOLOGIYA.

4.1. Ishlab chiqarish jarayonlariga qo`yiladigan xavfsizlik talablari

Mehnat muhofazasining asosiy vazifalaridan biri ishlovchilarning mehnat havfsizligini ta'minlashdir. Zamonaviy agrosanoat ishlab chiqarishi muntazam yangi texnikalar, mikrobiologik va kimyoviy moddalar etkazib berishni, chorva mollarini katta komplekslarga va mayda fermerlik xo`jaliklariga birlashtirishni, ish jarayonlarining yiriklashuvini, dehqonchilikdagi ishlarni brigada va oilaviy pudrat asosida bajarishni, ayrim mehnat turlarini hamda vostiolarini o`zgartirib borishni o`z ichiga oladi.

Mehnat havfsizligi – mehnat sharoitining shunday holatiki, unda ishlovchilarga xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining ta'siri istisno qilingan. Ishlab chiqarish sharoitida insonga jarohat etkazilishi bu fizikaviy va kimyoviy xavfli ishlab chiqarish omillari borligini bildiradi.

Fizikaviy xavfli ishlab chiqarish omillari – bu harakatdagi mashinalar, uskunalarning harakatdagi elementlarining to'silmaganligi, qo`zg`aluvchi buyum, materiallar, uskuna va materiallari ustki qismining qismining yuqori yoki past haroratda bo`lishi, elektr tarmoqlarining xavfli kuchlanishi. yuqori bosimdagi havo va gazning portlagandagi energiyasi va boshqalar.

Kimyoviy xavfli ishlab chiqarish omillari – odam organizmiga o`yuvchi, zaharli va qichitadigan moddalarning ta'sir qilishi bilan ifodalanadi. Muayyan xavfli ishlab chiqarish omillarning kelib chiqishi texnologik jarayon, uskuna konstruksiyasi va ishni tashkil qilinganlik darajasiga bog`liq bo`ladi.

Xavfli ishlab chiqarish omillarining kelib chiqish xususiyatiga qarab, ko`rinib turgan va ko`rinmaydiganlarga bo`lish mumkin. Ko`rinib turgan, xavfli, tashqi belgilari bilan yaqqol ifodalanadi: masalan, mashinaning harakatlanuvchi qismlari, alanga, ko`tarilib va osilib turgan yuk. Ko`rinmaydigan xavfli mashinalar, mexanizmlar, moslamalar va asboblarda yashirin nuqsonlarning borligiga bog`liqdir. Yashirin xavfni, shuningdek ish doirasining tiqishtirilganligi va ivirsiganligi, asbob, moslamalarni o`z maqsadida foydalanmaganligi, uzilgan elektr

simlari, mxodimlarning noto'g'ri va xato harakatlari va boshqalar tug'dirishi mumkin.

Ishchilarni xavfli va zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan dastlabki materiallar, yarim mahsulotlar va chiqindi ishlab chiqarilishi bilan bevosita aloqasini yo'qotish, xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari mavjud joylarni kompleks avtomatlashtirish hamda mexanizatsiyalash, texnologik jarayonlarda nazorat va boshqarish tizimini o'rnatish darkor. Bu ishlovchilarning himoyasini va ishlab chiqarish jarayonlarining avariya holatda o'chirilishini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarish chiqindilarini o'z vaqtida zararsizlantirish va chiqarib tashlash, ular xavfli va zararli ishlab chiqarishning oldini olishga yordam beradi.

Texnologik jarayonlarga qo'yiladigan xavfsizlik talablari texnologik hujjatlarda ko'rsatilgan bo'lishi shart. Ish joyidan tashqarida bajarayotganda xonalarni va maydonlarni tanlashga katta e'tibor qaratmoq kerak. Shuningdek, uzluksiz ishlab chiqarish jarayonlarining xavfsizligini, uskunalarni to'g'ri joylashtirish va ish joylarini oqilona tashkil qilish bilangina ta'minlash mumkin. Materiallarni, tayyor mahsulotni va ishlab chiqarish chiqindilarini saqlaganda, xavfli ishlab chiqarish omillarining sodir bo'lishidan himoyalaniş kerak.

Ishlab chiqarishda ishlashga ruxsat etilgan shaxslarning fizik imkoniyatlarini va mehnat xususiyatlarini hisobga olish shart. Xizmat qiluvchi xodimlar bajarayotgan ishlariga muvofiq mehnat xavfsizligi bo'yicha kasbiy tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishi lozim.

Mehnat xavfsizligini ta'minlashning texnik vositalari. Har qanday xo'jalikka, korxonalarga etkazib beriladigan har qanday qishloq xo'jaligi mashinasi, agregati, mexanizm va uskunalari baxtsiz hodisalarning oldini oladigan zamonaviy himoya vositalari bilan jihozlanadi. Mehnat xavfsizligi to'siq, tormoz, blokirovka, saqlash qurilmalari, signalizatsiya, shaxsiy himoyalaniş vositalarini ishlatish, shuningdek ularning yaxshi ishlashini nazorat qilish bilan ta'minlanadi.

To'siq qurilmalar. Xavfli zonalarini himoyalash uchun oddiy, ishonchli va arzon to'siq qurilmalar keng ko'lamda ishlatilmoqda. To'siq qurilmalar insonni xavfdan himoyalash uchun xizmat qiladi. Ular qanday maqsadga mo'ljallanganiga

qarab har xil tuzilmali bo`ladi. Shunga ko`ra to`siqlar doimiy yoki vaqtinchalik bo`lishi mumkin. Masalan, traktor orqa ko`prigining, tasmali uzatmalar qutisining korpuslari doimiy to`suvchi qurilmalardir. Doimiy to`siqlarning afzalligi shundaki, agregat ishlayotganda ishchi xavfli zonaga kira olmaydi. Doimiy to`siqlar siljuvchan va qo`zg`almas bo`ladi. Siljuvchan to`siqlarni to`siqlarning olib qo`yish yoki chekkaga surib qo`yish mumkin. Vaqtinchalik to`siqlar korxona, sex, uchastka territoriyasidagi ishlarni bajarish vaqtida ishlatiladi. Ularga misol sifatida muhofaza ekranlari, metall shchitlar, parda va boshqalarni keltirish mumkin. Sexda payvandlash ishlarini bajarishda atrofdagilarni elektr yoyning ravshan shu'lasini ta'siridan muhofaza qilishda, qurilish maydonchalari, transheyalarni to`sishtda, boshqa er ishlarini bajarishda vaqtinchalik to`siqlar ishlatiladi.

Himoya to`siqlari panjara, to`rlardan iborat. Agar mexanizm ishini ko`z bilan kuzatib turish zarur bo`lsa, bunday hollarda to`siq shaffof material (organik shisha, selluloid va boshq.)dan tayyorlanadi.

Himoya qurilmalari. Mashina va uskunalarga qo`yiladigan mavjud talablarga muvofiq har bir mashina, traktor yoki agregatda avariya holatidagi ish rejimiga mo`ljallangan himoya qurilmalari bo`lmasa, bunday mashina ishga yaroqli emas deb hisoblanadi. Himoya qurilmalarining ishlashini nazorat qilish parametri (zo`riqish, bosim, harorat va h.k.) ruxsat etiladigan chegaradan chiqqanida avtomatik to`xtaydi.

Barcha himoya qurilmalari to`rt guruhga bo`linadi:

- mexanik zo`riqishlaridan saqllovchilar (turli xil muftalar, kesilib ketadigan boltlar, shtiftlar va b.);
- mashina qismlarining belgilangan gabaritdan chiqishini saqllovchilar (yuk ko`tarish mexanizmlarining chetki uzib-ulagichlari, ular mashinaning ish organi yoki mexanizmning siljishini cheklab turadi);
- bosim yoki haroratning ko`tarilib ketishidan saqllovchilar (konstruktsiyasi turlicha bo`lgan klapanlar, ular idishdagi bosim ortib ketganida, traktorning gidrosistemasida moy, avtomobil va traktorning tormozlash sistemasida havo, ug`ning harorati, qozon qurilmasida suv ko`payib ketganda ochiladi va h.k.) ;

- elektr tok kuchining ruxsat etiladigan chegaradan ortib ketishidan saqlovchilar (elektr tarmoqlaridagi eruvchan saqlagichlar, avtomatik uzib-ulgichlar, buzilgan elektr uskuna, asbob va boshqalarni tarmoqdan uzib qo'yadi).

Tormozlash qurilmalari. Mashina va uskunalarning harakatlanayotgan (aylanayotgan) elementlarini tez va asta-sekin to'xtatish uchun tormozlash qurilmalari ishlatiladi. Bunlan tashqari, ular mashinalarni qiyaliklarda tutib turish, ko'tarilgan yukning o'z-o'zidan pastga tushib ketishidan saqlash maqsadlarida ham ishlatiladi.

Blokirovka qurilmalari. Blokirovka – bu mexanizmlarni yoki ularning qismlarini muayyan holatda ishonchli mahkamlashni ta'minlaydigan vositalardir. Mashina, mexanizmda blokirovka qurilmalarining va boshqa saqlagich vositalarning bo'lishi ishlovchining xavfsizligini ta'minlay olmaydigan hollarda qo'llaniladi.

Harakati bo'yicha quydagi turdagi signalizatsiyalardan foydalaniladi: yorug'lik, ovozli, rangli, va belgi o'rnatish. Yorug'lik signalizatsiyalari transport vositalarida xavfsizlik vositasi sifatida keng foydalaniladi. Ular oldindan va orqadan kelayotgan transportdan ogohlantiradi. Shu maqsadda transportvositalari har xil signalizatsiya yoritish asboblari: faralar, o'lchamlarini, burilishni ko'rsatuvchi chiroqlar, stop-signallar bilan jihozlanadi.

Standartda quyidagi signal ranglarini va vazifalarini belgilaydi: qizil – «man etish», «stop», «yaqqol xavflilik», sariq - «diqqat», «mumkin bo'lgan xavf to'g'risida ogohlantirish», yashil – «xavfsiz», «ruxsat etiladi», «yo'l ochiq», ko'k – «informatsiya».

Oxirgi vaqtlarda ishchi kiyimi va korjomalarini bo'yash muammosiga juda katta e'tibor berilmoqda. An'anaviy qora va to'q ko'k ranglarni boshqa och ranglar bilan almashtiriladi. Xavfli doirada ishlovchi odamning kiyimi ish joyidan keskin ajralib turishi maqsadga muvofiqdir. Ochiq havoda ishlaganda to'q sariq rangdagi kiyim maqsadga muvofiqdir. Bunday kiyimlarni temir yo'llarni ta'mirlayotgan va yo'l qurilishi ishlarida ishlayotgan ishchilar kiyadi.

Avtomatik ulash qurilmalari traktorni tirkama yoki osma mashinalar bilan avtomatik ulashni ta'minlab beradi. Avtomatik ulashlarni keng miqyosda ishlab chiqarishga tadbiq etilishi mashinalarni agregatlashda sodir bo'ladigan jarohatlanishlarni butunlay yo'qotadi.

Masofadan turib kuzatish va boshqarish shu sharoitlarda olib boriladiki, operatorni ish doirasida xavfsizlik nuqtai nazardan yoki texnologik sabablarga ko'ra mumkinmasligi, shungdek ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish sharoitida samarasizdir. Masofadan kuzatish maxsus datchiklar, signalizatorlar, teleekranlar va nazorat-o'lchov asboblari orqali olib boriladi. Masofadan turib boshqarish tizimlari, elektron-mashinalarida bajariladi.

4.2. Favqulodda vaziyatlar, uning sababchi omillari va xususiyatlari

Fuqarolar muhofazasi- umumdavlat mudofa siyosatlaridan biri bo'lib, u har qanday favqulodda holatlarda fuqarolarni, xalq xo'jaligi tarmoqlarini muhofaza qilishda, ularning muttasil ishlashini ta'minlashda hamda qutqarish va tiklash ishlarini bajarishda katta ahamiyat kasb etadi.

FVVning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishi asosan: favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, fuqoralar hayoti va salomatligini muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar yuz berganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tizimi (FVDT)ni tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash, fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, vazirliklar, idoralar, mahaliy davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish, maqsadli ishlab chiqarish va hakoza'larga qaratilgan.

Shunday qilib, fuqoralar muhofazasi har qanday favqulodda vaziyatlarda fuqorolarni, moddiy resurslarni muhofaza qilish, fuqorolarni qanday hatti-harakat etishi, ularga qanday chora tadbirlar bilan yordam berilishi, shikastlangan zonalarda qutqaruv va tiklov ishlarini olib borish, ishlab chiqarish tarmoqlarini

muttasil ishlashini ta'minlash vazifalarini bajaradi. Zero, er yuzida umimiy qirg'in qurollari, hujumkor qurollarning zamonaviy turlari mavjud ekan, shu bilan birga tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni bo'lishligi muqarrar bo'lganligidan har bir davlatda va uning barcha hududlarida fuqarolar muhofazasi davlat tizimi tashkil etiladi va uning vazifalari aniq belgilanadi.

Favqulodda vaziyat (FV)-ma'lum hududda yuz bergan falokat, halokat va boshqa turdagi ofatlar natijasida kishilarning o'limiga, salomatligiga. tevarak atrofdagi tabiiy muhitga sezilarli moddiy zarar etkazuvchi, odamlarning turmush sharoitini buzilishiga olib keladigan holatdir.

Favqulodda vaziyatlar xavfining tarqalish tezligiga ko'ra, quyidagi guruhlariga bo'linadi:

a) tasodifiy FV – er silkinishi, portlash, transport vositalaridagi avariya va boshqalar;

b) shiddatli FV – yong'inlar, zaharli gazlar otilib chiquvchi portlashlar va boshqalar;

v) mo'tadil (o'rtacha) FV – suv toshqinlari, vulqonlarning otilib chiqishi, radioaktiv moddalar oqib chiquvchi avariya va boshqalar;

g) ravon FV – sekin-asta tarqaluvchi xavflar: qurg'oqchilik, epidemiyalarning tarqalishi, tuproqning ifloslanishi, suvni kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi va boshqalar.

Favqulodda vaziyatlar yana tarqalish miqyosiga (shikastlanganlar soniga hamda yo'qotishlar miqdoriga qarab) ko'ra 4 guruhga bo'linadi:

1. Lokal (ob'ekt miqyosidagi) FV;
2. Mahalliy FV;
3. Respublika (milliy) FV;
4. Transchegaraviy (global).

Lokal favqulodda vaziyat – biror ob'ektga taluqli bo'lib, uning miqyosi o'sha ob'ekt hududi bilan chegaralanadi. Bunday vaziyat natijasida 10 dan ziyod bo'lmagan odam jabrlanadi yoki 100 dan ortiq bo'lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo

boʻlgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiq boʻlmagan miqdorini tashkil etgan hisoblanadi.

Mahalliy tavsifidagi favqulodda vaziyat – aholi yashaydigan hudud (aholi punkti, shahar, tuman, viloyat) bilan chegaralanadi. Bunday vaziyat natijasida 10 dan ortiq, biroq 500 dan kam boʻlmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo boʻlgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiqni, biroq 0,5 million baravaridan koʻp boʻlmagan miqdorini tashkil etgan hisoblanadi.

Respublika (milliy) tavsifdagi favqulodda vaziyat – deyilganda favqulodda vaziyat natijasida 500 dan ortiq odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan yoxud moddiy zarar FV paydo boʻlgan kunda eng kam oylikish haqi miqdorining 0,5 million baravaridan ortigʻini tashkil etadigan, hamda FV mintaqasi viloyat chegarasidan tashqariga chiqadigan, respublika miqyosida tarqalishi mumkin boʻlgan FV tushuniladi.

Transchegaraviy (global) tavsifdagi favqulodda vaziyat deyilganda esa, oqibatlarini mamlakat tashqarisiga chiqadigan yoxud FV chet elda yuz bergan va Oʻzbekiston hududiga dahldor holat tushuniladi. Bunday falokat oqibatlarini har bir mamlakatning ichki kuchlari va mablagʻi bilan hamda hamjamiyat tashkilotlari mablagʻlari hisobiga tugatiladi.

Favqulodda vaziyatlar tavsifiga koʻra (kelib chiqish manbaiga koʻra):

1. Tabiiy tushdagi FV; 2. Texnogen tushdagi FV; 3. Ekologik tushdagi FVlarga boʻlinadi.

Tabiiy tushdagi favqulodda vaziyatlarga 3 xil turdagi xavfli hodisalar kiradi:

1) geologik xavfli hodisalar: zilzilalar, er koʻchishlari, togʻ oʻpirilishlari va boshqalar;

2) gidrometrologik xavfli hodisalar: suv toshqinlari, sellar, qor koʻchkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqalar;

3) Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar; alohida xavfli infeksiyalar (oʻlat, vabo. sargʻayma, isitma) yuqumli kasalliklar, terlama, Bril kasalligi, zoonoz tinfeaksiyalar- Sibir yarasi, quturish, virusli infeksiyalar- SPID.

Texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlarga 7 xil turdagi vaziyat kiradi:

- 1) Transportlardagi avariya va halokatlar (kema, samolyot, temir yo`l, vokzal,)
- 2) Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariya;
- 3) Yong`in-portlash xavfi mavjud bo`lgan ob'ektlardagi avariya;
- 4) Energetika va komunal tizimdagi avariya; (GES, GRES)
- 5) Bino va inshootlarning birdan qulab tushishi bilan bog`liq avariya;
- 6) Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog`liq avariya;
- 7) Hidrotexnik inshootlardagi halokatlar va avariya; (suv omborlari, kanallar)

Ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlar. Ekologik tushdagi FVlar asosan 3 xil bo`ladi:

- 1) Quruqlik (tuproq, er osti)ning holati o`zgarishi bilan bog`liq vaziyatlar (foydali qazilmalarni qazish chog`ida, halokatli ko`chkilar)
- 2) Atmosfera tarkibi va xossalari o`zgarishi bilan bog`liq bo`lgan vaziyatlar; (havo muhitining zararli gazlar bilan ifloslanishi)
- 3) Hidrosfera holatining o`zgarishi bilan bog`liq vaziyatlar; Er yuzasi va osti suvlarining sanoat va qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi oqovalari.

Favqulodda vaziyatning tavsifi.

1. Har qanday favqulodda vaziyatlar 8 ta ko`rsatkich bo`yicha aniqlanadi:
2. Favqulodda vaziyatning nomlanishi (FV ning ta'rifi);
3. FVning mohiyati;
4. FVning sabablari;
5. FVning shikastlovchi omillari;
6. FVning qaltislikni oshiruvchi omillari;
7. FVning oldindin bilish mumkinligi (monitoring, bashorat, Yu ogohlantirish, yumshatish);
8. FVni bartaraf qilish;
9. Moddiy zararni aniqlash;

FV oqibatining asosiy turlari: o`lim, odamlarning kasallanishi, inshootlarning buzilishi, radioaktiv ifloslanishlar, kimyoviy va bakterial zaharlanishlar.

FVning zararli va xavfli omillari ta'siri ostida joylashgan aholi, hayvonlar, inshootlar, moddiy resurslarning barchasi – «Shikastlanish o`chog`i» deyiladi. Oddiy (bir turdagi) shikastlanish o`chog`i deb, faqat bir shikastlovchi omil ta'sirida hosil bo`ladigan o`chog` tushiniladi. Masalan, portlash, yong`in natijasida buzilish, kimyoviy zaharlanish kuzatiladi. Murakkab (ko`p turli) shikastlanish o`chog`i deganda bir necha shikastlovchi omillar ta'sirida yuzaga kelishi tushuniladi. Masalan, kimyo korxonasidagi portlash, binolarning buzilishi, yong`in, kimyoviy zaharlanish kabi oqibatlarga, er silkinishi, kuchli bo`ron, suv toshqini, yog`inlar, elektr tarmoqlarini ishdan chiqishi, zaharli gazlarning chiqib ketishi natijasida zaharlanish va boshqa talofatlarga olib kelishi mumkin.

Fuqaro muhofazasining vazifalari. Fuqaro muhofazasi davlat tizimlari – harbiy davrda ham yuzaga keladigan xavflardan aholini, hududlarni, moddiy boyliklarni muhofaza qilishda muhim vazifalarni bajaradi.

Fuqaro muhofazasining vazifasi quydagilardan iborat:

1. Aholi va ob'ektlarni harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash harakatlari va usullariga tayorlash.

2. Boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish.

3. Xalq xo`jaligi ob'ektlarining barqaror ishlashini ta'minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o`tkazish.

4. Aholini, moddiy va madaniy boyliklarini xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish.

5. Fuqaro muhofazasi harbiy tizimlari shayligini ta'minlash.

6. Aholini umumiy va shaxsiy saqlovchi vositalari bilan ta'minlash tadbirlari o`tkazish.

7. Aholini harbiy davrdagi hayot faoliyatini ta'minlash.

8. Radiatsiyaviy, kimyoviy biologik vaziyat ustidan kuzatish va laboratoriya nazorati olib borish.

9. Qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish.

10. Harbiy davrlarda ham zarar ko'rgan hududlarda jamoat tartibini yo'lga qo'yish va saqlab turish.

11. Aholini va hududlarni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

Mana shu vazifalarni muvaffaqiyatli olib bormay turib, zararlangan hududlarda, ob'ektlarda mo'tadil hayot faoliyatini yaratib bo'lmaydi. Bu ishlarni davlat organlari orqali, fuqaro muhofazasi boshchiligida butun xalq yordamida amalga oshiriladi.

12. Aholini favqulodda vaziyat sharoitida himoyalash, shu hodisaning noxush oqibatiga yo'l qo'ymaslik yoki uni maksimal darjada pasaytirish bo'yicha kompleks tadbirlardir. Aholini himoyalashning yuqori samarasi ishlatilayotgan barcha vosita va usullar to'la ishlatilganda va xavfsizlikni ta'minlash printsiplari to'laligicha anglab etilgan taqdirdagina bo'lishi mumkin.

Xavfsizlikni ta'minlash printsiplarini ularni qo'llash bo'yicha uch guruhga bo'linadi:

1. Oldindan tayorgarlik ko'rmoq himoya vositalarini to'plash, ularni tayyor holda saqlash hamda aholini xavfli zonadan evakuatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tayyorlash va amalga oshirish.

2. Differentsiyalashgan yo'nalish shundan iboratki, bunda himoya tadbirlari hajmi va xarakteri xavfli va zaharli omillar manbaining turiga va mahalliy sharoitlarga bog'liq.

3. Tadbirlar kompleksi FV oqibatlaridan himoyalalanish usullari va vositalaridan samarali foydalanish, zamonaviy texnosotsial muhitda hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar bilan birga olib borishni taqozo qiladi.

FV larda aholini himoya qilishning asosiy usullari, aholini evakuatsiya qilish, himoya inshootlariga berkitish, shaxsiy himoya hamda tibbiy proflaktik vositalarni qo'llashdan iboratdar.

Siyosiy-harbiy nizolarni ayniqsa zamonaviy qurol-yarog`lar bilan hal qilishda qirg`indan saqlab qolish uchun eng samarali usullardan biri aholini himoya inshootlariga berkitishdir. Ayniqsa, radioaktiv va kimyoviy moddalardan saqlanish samarasi yuqoridir.

Himoya inshootlari-bular fizik, kimyoviy va biologik xavfli va zararli omillardan himoyalash maqsadida maxsus qurilgan muhandislik inshootlaridir.

Shaxsiy himoya vositalari-odam organizmining ichki a'zolariga, terisiga va kiyimiga radioaktiv, zaharlovchi va bakterial vositalarning ta'siridan saqlaydi.

Favqulodda vaziyatlarda hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash odam faoliyatining barcha jarayonlarida sog`ligini va hayotini saqlashga qaratilgan tashkiliy, muhandis-texnik tadbirlar va vositalar kompleksidir.

Hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan asosiy yo`nalishlar quydagilardan iborat:

- FV larni va ularning oqibatini oldindan aytish;
- FV paydo bo`lishi ehtimolini yo`qotish yoki kamaytirish tadbirlarini rejalashtirish, hamda ular oqibatlari ko`lamini kamaytirish;
- FV larda xalq xo`jaligi ob'ektlari ishining muntazamligini, uzluksizligini ta'minlash;
- FV lardagi aholini o`qitish;
- FV oqibatlarini tugatish.

Ushbu yo`nalishlarning qisqacha mazmunlari quydagilardir.

FV ni ularning oqibatlarini oldindan aytish va baholash.

Bu-tabiiy ofatlar, avariya va falokatlar tufayli yuzaga kelgan vaziyatni taxminiy aniqlash va baholash usulidir.

Hozirgi vaqtda seysmik rayonlar, tuproq siljishi mumkin bo`lgan, sel oqimlari yo`nalishlari, plotinalar buzilganda, suv toshqini bo`lganda, odamlarga va hududga zarar keltirishi mumkin bo`lgan zonalar chegaralari aniqlangan.

HFX bo`yicha prognoz qilish masalalariga FV larning sodir bo`lish vaqtini taxminiy aniqlash ham kiradi. Bu prognoz bo`yicha aholining xavfsizligini ta'minlash bo`yicha operativ choralar ko`riladi. Hozirgi vaqtda ko`pgina olim va

mutaxasislarning fikri FV larning boshlanishi va rivojlanishi oldindan aytib berishga qaratilgan.

Ko`rilayotgan muammoni ushbu sharoitda hal qilishda FV larga odamning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xavfning oldini olish va paydo bo'lish ehtimolini kamaytirish, hamda uning oqibatlari masshtabini kamaytirish masalalarini qamrab oladigan sistemali yondoshish kerak.

Ushbu metodologik asosda o'zimizning va chet el amaliy tajribasini hisobga olgan holda samaradrligi tabora ortib boruvchi tadbirlar kompleksi oldindan tayorlash, boshqacha qilib aytganda zamonaviy texnosotsial muhitda odamning HFX ni ta'minlashning ko'p tabaqali sistemasini joriy qilish kerak.

FV lar oqibatida ko`riladigan zararlarning oldini olish tadbirlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

Doimiy o'tkaziladigan tadbirlar. Ular uzoq muddatli prognoz asosida tuziladi: Standart talablarini hisobga olgan holda qurilish-montaj ishlarini olib borish, aholini xavf-xatar haqida xabardor qilishning ishonchli sistemasini yaratish. Aholini ShXV bilan ta'minlash va himoya inshootlarining etarli fondini tuzish, nurlanish, kimyoviy va bakteriologik kuzatuv ishlarini tashkil etish, aholini FV chog`ida o'zini qanday tutish va faoliyati haqida umumiy o`quvlvrini tashkil etish, epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiena tadbirlarini o`tkazish.

FV vaqti aytib berilgach, ko`rilishi kerak bo`lgan himoya tadbirlari: prognoz uchun zarur bo`lgan razvedka va kuzatish sistemasini jonlantirib yuborish. Aholiga FV haqida xabar beruvchi sistemani tayor holga keltirish, iqtisodiy va jamoat hayotini maxsus qoida asosida qayta qurish, hattoki favqulodda holatgacha, yuqori xavfli manbalarni FV holatida neytrallash ular ishini to`xtatib qo'yish, qo`shimcha mustahkamlash yoki demontaj qilish, avariya qutqaruv xizmatini tayor holga keltirib qo'yish, aholini qisman evakuatsiya qilish.

FV da HFX ni ta'minlashda rejalashtirish asosiy omillardan biridir. U maqsadga erishish borasida vaqt, mablag` va ijrochilarni aniqlashtiradi. U sharoitni ilmiy asosda prognoz qilish, har tamonlama tahlil qilish, moddiy va ma'naviy

resurslarni baholash va aholini FV holatida himoya qilishning zamonaviy, nazariy va amaliy tadbirlarga asoslanadi.

Rejalashtirishning natijasi sifatida ma'lum hujjat-reja tuziladi. U quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi kerak: aniq ko'rsatkichlar (ish turlari, tadbirlar), bu ishlarni bajarish muddati, rejani bajarish uchun zarur resurslar (turlari, soni, manbalari) har bir punktni bajaruvchi mutassadi shaxslarga topshiriqlar, reja bajarilishining borishini nazorat qilish usullari va h.o.

Xulosa.

Men bu loyixalash davrida elektron pul o'tkazmalarini yanada rivojlantirish maqsadida xar xil takliflarni qo'shmoqchiman.

Bugungi kunga kelib pochta xizmati soxasida ko'plab yangi xizmat turlari kirib kelmoqda va mijozlarga taqdim etilmoqda. Xususan buyurtmali pochta jo'natmasini manzilga eltib berish orqali pochta xizmati soxasida sezilarli darajada daromadlarni oshishiga xizmat qilmoda. Bu xizmat turi bilan esa O'zbekiston pochta AJ AJ ning xizmatlari rivojlanishiga o'z xissasini qo'shmoqda.

Foydalanuvchi va davlat organlari o'rtasidagi aloqani yanada rivojlantirish maqsadida xar bir foydalanuvchiga o'z uyida turib elektron pul o'tkazmalarini amalga oshirishi kerak. Ya'ni xar bir pochta aloqa shaxobchasiga uydin turib murojat qilish imkonini yaratish va xar bir foydalanuvchining o'z login-paroli bo'lish kerak. Bu login-parol orqali foydalanuvchi elektron pul o'tkazmalarini amalga oshiradigan dasturga kirib u yerda davlat organi bilan birga elektron pul o'tkazmalarini amalga oshirishi mumkin.

Bu xizmatlarni amalga oshirish uchun elektron pul o'tkazmasi amalga oshiriladigan dasturni yanada takomillashtirish kerak. Shundagina xar bir foydalanuvchi uyda yoki ishdin xox u o'zining shaxsiy kompyuteri, xox shaxsiy telefoni bo'lsin u xamma joyda tez va qulay pul o'tkazmalarini amalga oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Komp'yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi 2002 yil 30 maydagi Farmoni.
2. «Telekommunikatsiyalar va pochta aloqasi sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2000 yil 27 noyabrdagi 458-son farmoni;
3. «Telekommunikatsiyalar sohasida faoliyatlar ko'rsatish huquqi uchun davlat boji miqdorlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 2001 yil 24 oktyabrdagi 421-son farmoni;
4. «Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 24 oktyabrdagi 421-son Qaroriga qisman o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi 2001 yil 16 noyabrdagi 453-son farmoni;

Intrnet saytlar

www.pochta.uz – “O'zbekiston pochta” AJ ning rasmiy sayti

www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi Hukumati sayti

www.icpt.uz – O'zbekiston hukumatga mamlakat rivojlanishi uchun Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarni siyosatini shakillantirish va joriy etishda ko'mak, BMTTDning loyixasi sayti

www.ddi.uz – BMTTDning “raqamli rivojlanishdasturi” loyixasi sayti